




UNIVERSAL
CONFERENCE

INTERNATIONAL SCIENTIFIC INNOVATION RESEARCH CONFERENCE



PARIS

universalconference.us

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC INNOVATION RESEARCH
CONFERENCE**

VOLUME-1, ISSUE-1

Editor in Chief

Dr. Rajeet Ojha - Interdisciplinary Research in Basic Sciences, Jamia Millia Islamia, New Delhi -110025, India

Editorial Team

Sunita Sarawagi - Indian Institute of Technology Bombay, Mumbai, India.

Dr Manjunatha LH - Professor, REVA University, INDIA

Asish Bera - Edge Hill University, UK, BITS Pilani, India

Dr Sunildro LS Akoijam - Assistant Professor of Management, North Eastern Hill University, India

Madan Mohan Singh - Professor of Mathematics, North-Eastern Hill University, Shillong, India

Dr. Anupam Singh - Associate Professor-CSE, Graphic Era Hill University Dehradun, India

Dr. Sargam Bahl Walia - School of Management, Graphic Era Hill University, Dehradun, Uttarakhand, India

Narayan Pradhan - Indian Association for the Cultivation of Science

Ashok Kumar - Kumar Associate Professor E&CE National Institute of Technology. Hamirpur, India.

Anjali Pal - Department of Civil Engineering, Indian Institute of Technology Kharagpur - 721302, India.

Rajnish Joshi - Professor of Medicine, All India Institute of Medical Sciences, Bhopal, India

Mukul Kumar - IIT Mumbai (India); Meijo University (Japan); HEG Ltd. (India)

Prof. Kuruvilla Joseph - Indian Institute of Space Science and Technology (IIST)

Prof. Yogesh C. Sharma - D.Sc., FRSC, FBRS, FIAPS; FISEES, Department of Chemistry, Indian Institute of Technology

Professor Indra Mani Mishra - Indian Institute of Technology (Indian School of Mines), Dhanbad; Formerly at India

Eshkaraev Sadridin Chorievich - associate professor of the Department of Analytical Chemistry of Termiz State University, Doctor of Philosophy Chemical Science, Termez, Uzbekistan. esadir_74@rambler.ru



QADIMIY TOSHBOSMA VA BOSMA KITOBLAR

*Kabilova Zebiniso Muratovna,
Andijon davlat chet tillari instituti Umumiy va qiyosiy tilshunoslik
kafedrasi mudiri, f.f.n., dotsent.*

*Kabulova Umidaxon Sayidmaxamadovna,
Andijon davlat chet tillari instituti Umumiy va qiyosiy tilshunoslik
kafedrasi dotsenti, f.f.n.*

Tayanch soʻz va iboralar: *toshbosma va bosma kitoblar, oʻzbek matbaachilik tarixi, falsafiy va estetik qarashlari, miniatyura, xattot, naqqosh, rassom, muqovasoz, zarhal harf, sintez, kitobat sanʼati, shams, zarvaraq, unvon, xoshiya naqshi, valha, xotima.*

Kitobat sanʼati Sharq madaniyatining qadimiy va nodir turlaridan biri. Kitob Sharqda qadimdan izzat-ikromda boʻlgan. Unda Vatan va millat tarixi, ilm, fan sirlari, kishilarning falsafiy va estetik qarashlari, turmush tarzi, orzu umidlari oʻz aksini topgan.

Sharq kitoblarini sharqona donolik, maʼnaviy barkamollik timsoli sifatida eʼtirof etadilar. Unda xattot, naqqosh, rassom, muqovasoz, zarhal harf yozuvchisi mutaxassislarining yuksak badiiy mahorati sintezi sifatida yuksak badiiy saviyasidagi asarlar darajasiga yetkazilgan. Shu bois ham, jahonning eng yirik muzey kutubxonalarini (Sankt-Peterburgdagi Ermitaj, Nyu-Yorkdagi Metropoliten, Londondagi Britaniya muzeyi, Parijdagi Fransiya Milliy kutubxonasi va boshqalar)da Sharq kitobat sanʼatining nodir namunalari saqlanadi.

Miniatyura nodir qoʻlyozmalar ziynatlari boʻlmish shams, zarvaraq, unvon, xoshiya naqshi, valha, xotima kabi bezaklar bilan umumiy uslubiy uygʻunlikka ega.



Nafis mo'jaz rasmlar asosan ilmiy, badiiy va tarixiy asarlarning nodir qo'lyozmalarini bezashga xizmat qilgan. Rassomlar asarlarining yetakchi g'oyalari va asosiy qahramonlari obrazlarini ranglar vositasida ifodalaganlar.

Moskvadagi Sharq xalqlari san'ati Davlat muzeyining fondida XVI asrda Qozi Ahmad ibn Mir Munshi al-Husayn tomonidan yozilgan «Gulistoni-hunar» ya'ni, «Xattot va rassomlar haqida risola» asari saqlanmoqda. Qozi Ahmadning bu risolasi XVI asr Eron rangtasviri tarixining juda qiziqarli manbalaridan biridir. Bu asar muallifning zamondoshlari bo'lmish o'ttiz ikki nafar xattot va rassomlar haqida qiziqarli ma'lumot beradi.

Turk san'atshunoslarining tadqiqotlariga qaraganda Istambulning To'pqupu Sariti muzeyida va Ayo Sofiya muzeyida Samarqand va Xurosonda kitobat qilinib, miniatyuralar bilan bezatilgan yuzga yaqin qo'lyozma va muraqqa'lar avaylab saqlanmoqda. To'pqupu saroyi muzeyida saqlanayotgan «Shohnoma», Nizomiyning «Hamsa»si, yuz varaq, 650 suratdan iborat Boysunqur Mirzo albomi, Amir Temur va Temuriyzodalar suratlaridan iborat muraqqa'lar, Bahrom Mirzo albomi va o'nlab Ulug'bek Mirzo va Sulton Husayn Mirzo muhrlari chekilgan qo'lyozmalar shular jumlasidandir.

Xattotlar va rassomlar haqidagi qimmatli manba «Gulistoni-hunar» asarining muallifi Qozi Ahmad Qumiyning yozishicha, Ustod Kamoliddin Behzodning mahoratda tengsiz shogirdlaridan bo'lmish Do'st Devona ismli rassom ham Hindistonga ketib, o'sha yerda shuhrat orttirgan ekan.

Boburning nabirasi Akbarning taxminan yarim asrlik hukmronlik davrida ham hind miniatyura rassomlik maktabi yangicha uslubda rivoj topadi. Shoh Akbar esa yoshligidanoq xattotlik va rassomlik taraqqiyotiga juda katta e'tibor berib, saroy qoshidagi ustaxonaga rassomlarni jalb etishda shaxsan o'zi bosh-qosh bo'ladi, haftaning ma'lum kunida musavvirlar ishlarini nazoratdan o'tkazib,



muvaffaqiyatga erishgan san'atkorlarga in'omlar tuhfa etgan yoki ularning oylik maoshini ko'paytirib turgan.

Biz ko'rib ko'zimiz ko'nikib qolgan kitoblar osongina shu ko'rinishga kelgan emas, qadimda matnlar uzundan-uzun, bir necha metr lab yozilgan, bunda papirus o'simligi poyasidan foydalanilgan, dumaloqlab ip bilan bog'langan. Buning misoli tariqasida Britaniya muzeyida saqlanayotgan Garris papirusini keltirish mumkin. Uning uzunligi 40 metrdan ortiqdir. Mesopotamiyada matnlar tekislangan loydan qilingan ko'rgazmaga yozilib, so'ng qizdirilgan. Qadimiy Rimda kitobning boshqa turi poliptix qo'llanilgan, u daraxtning tanasidan tekislangan, bosx bilan qoplangan, qayish bilan mahkamlanib harflarni tirkab yozilgan. Albatta, ularning sahifalari kam miqdorda bo'lgan. Bizning eramizgacha II asrda yangi material yozuv uchun pergament (maxsus teri) qo'llanila boshlangan.

Shu o'rinda aytish mumkinki, zardushtiylarning afsonaviy muqaddas kitobi «Avesto» kitobi ham bir necha mol terisiga yozilganligi ma'lum.

Kitob bosma rivojlanishi bilan kitobning **muqovalari** ham o'zgardi. U endi yuvelir (bezakli buyum) sifatida emas, amaliy maqsaddan kelib chiqib, kitobni saqlovchi vazifasiga o'tdi.

Tipografik muqovali kitoblarning paydo bo'lishi va unda rassomning ishtiroki, kitobning yangi badiiy obrazining yangi belgilari – elementlari paydo bo'lishiga olib keldi.

Bosma nashr uchun nusxalarni tanlash, ularni saralash va nihoyat bosma nashrni yuzaga keltirish ishlari takomillasha borib, hozirgi zamon matnshunosligining yuzaga kelishiga zamin tayyorladi.

Yuqoridagilarga asoslanib, aytishimiz mumkinki, kitobat san'ati juda, qadimiy tarixga ega va o'z taraqqiyoti davrida bir necha bor o'z shakl-shamoyilini o'zgartirib bo'lsa-da, hozirgi sharoitda o'zining mukammaliga erishgan deyish mumkin. Ayniqsa, kitoblar so'nggi yillarda ko'plab nashr etilmoqda, davr taqozosi



bilan rang barang illyustratsiyali muqovalar, foto rasmlı kitoblar turli shakllarda ishlab chiqarilmoqda. Biroq kitobat san'atida miniatyura, mumtoz san'at an'analari asosida bezatilgan kitoblar hali hamon o'z qimmatini yo'qotganicha yo'q.

So'nggi yillarda esa kompyuter grafikasining yangi imkoniyatlari ko'zga tashlanmoqda. Tasviriy san'at asarlarini kompyuter texnikasi bilan ko'paytirish variantlari yuzaga kelmoqda. Demak, kitob san'atida yangi texnologik o'zgarishlarda, kompyuter texnikasi imkoniyatlari asosida zamonaviy kompozitsiyali kitoblar yaratish mumkin.

Adabiyotlar:

1. A.Habibullayev. Matnshunoslik. O'quv qo'llanma. – T., 2000.
2. Erkinov A.S. Matnshunoslikka kirish. – T., 1997.
3. Sirojiddinov Sh., S.Umarova. O'zbek matnshunosligi qirralari. – T.: Akademnashr, 2015.
4. Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. – T.: Fan, 1971.
5. Shamsiyev P. Matnshunoslikka oid tadqiqotlar.



WIE MAN JUNGEN LERNENDEN DEUTSCH LEHRT

Kumushoy Polvonova Shavkat qizi

Studentin an der Urgentscher Staatlichen Universität

Abstract: Dem spielerischen Geist von Kindern beizubringen, die Wunder der deutschen Sprache zu verstehen, erfordert viel Geduld und Kreativität. Wenn Sie als Kind oder als Erwachsener an Sprachkursen teilgenommen haben, wissen Sie, wie unterschiedlich Ihr Unterricht ist. Zu wissen, wie man jungen Lernenden Deutsch beibringt, ist eine ganz andere Sache.

Schlüsselwörter: Grammatik, Wortschatz, Hören, Schreiben, Lesen, Sprechen

Das Erlernen der deutschen Sprache für junge Lernende erfordert eine ausgewogene Balance zwischen Spaß und Arbeit. Die Strategie, die Verbkonjugationstabellen mit zwanzig mal Wiederholungen schreiben, ist für Erwachsene effektiv, aber es kann für Erstklässler schwierig sein. Wie Sie Ihren Deutschkurs dazu ermutigen, dass Berufstätige und Studenten im Kreis sitzen und zu einem Lied über Farben mitklatschen, wird dies viele Stirnrunzeln hervorrufen.

Manchmal kann es schwierig sein, jungen Lernenden dazu zu bringen, den ganzen Unterricht über konzentriert zu bleiben. Sie können diese Energie und dieses Interesse jedoch zu Ihrem vollen Vorteil nutzen. So bringen Sie Kindern mit lustigen Spielen und Aktivitäten Deutsch bei!

Diese Kombination bedeutet, dass Sie der Art und Weise, wie Sie Informationen präsentieren und Ihre Lernende einbeziehen, besondere Aufmerksamkeit schenken müssen. Engagement und Spaß sind der Schlüssel zum Aufbau einer starken Grundlage für ihre zukünftige Ausbildung.



1. Verwandeln Sie Lektionen in Lieder. Wir beziehen uns auf das ABC, um uns zu merken, welcher Buchstabe zum Beispiel nach K oder nach L kommt. Obwohl der Mittelteil etwas mehr Gehirnleistung erfordert, bietet das Lied Deutschsprachigen einen praktischen Bezugspunkt für alle ihre Alphabet-Bedürfnisse. Das Umwandeln von Vokabeln, Grammatik und Dialogen in eingängige Melodien ist eine großartige Möglichkeit, jungen Lernenden Deutsch beizubringen. Wenn Sie nach Material suchen, können Sie auf YouTube nachsehen, ob es dort einen passenden Song gibt. Trotzdem können Sie Ihren inneren Beethoven anzapfen und mit der Melodie eines anderen einfachen Liedes ein musikalisches Meisterwerk schaffen.

2. Erstellen Sie Visuelle Diagramme, um das neue Vokabular zu veranschaulichen. Kopf, Schultern, Knie und Zehen. Es ist viel einfacher, Schülern Bilder zu zeigen, als sie in eine Vokabelliste zu schreiben. Die Lernende können daran Spaß haben, die Bilder auszumalen und sogar ihre Gedanken auszudrücken.

Hervorheben, Unterstreichen und Einkreisen sind gängige visuelle Tricks, mit denen man sich Informationen merken kann. Das Erstellen visueller Diagramme ist die gleiche Grundidee, damit Kleinkinder beginnen können, sich vorzustellen, wie Deutsch aussieht. Als Bonus können Lernende in den überfüllten Ordnern mit Papieren leichter Studienführer mit klaren Farben und Bildern finden.

3. Mnemonik verwenden, um sich Grammatikregeln zu merken. Mnemonik erleichtert das Erinnern an schwierige Wörter oder komplexe grammatikalische Konzepte.

4. Binden Sie während der gesamten Unterrichtsstunde spontane und konsistente Dialoge ein. Zum Beispiel“ Was hast du am Wochenende gemacht? Um wie viel Uhr bist du heute aufgestanden?“. Sie den Unterricht mit einer erwarteten Frage beginnen, können Sie Ihre Schüler schon lange vor Unterrichtsbeginn dazu bringen, darüber nachzudenken, was sie sagen werden. Der natürliche Dialog, der für ihr eigenes Leben und ihre Interessen relevant ist, führt die Schüler auch in den alltäglichen Wortschatz ein.

Wenn Sie mit einer Klasse arbeiten, können Sie auch mit den Schülern Gespräche führen, weil es für sie sehr wichtig ist, den Unterschied zwischen „ich“ und „ICH“ zu machen.



Fragen Sie, was es zum Mittagessen gibt, wie das letzte Fußballspiel war oder was sie sonst noch gerne teilen möchten.

5. Integrieren Sie Spiele in die Trainingseinheiten. Kindererziehung ohne Spiel ist wie Chicken Wings ohne Gewürze oder Soße. Durch aktive Spiele können die Lernende aufgestaute Energie freisetzen, ruhige Spiele sind anspruchsvoll und erfordern Konzentration.

Verweise:

1. Karasik V.I. Sprachkreis: Persönlichkeit, Konzepte, Diskurs/ V.I.Karasik , 2004. -389 S.
2. Fasmer M. Etymologisches Wörterbuch der russischen Sprache. B v. IV. / Aus dem Deutschen übersetzt.



Sohaga oid matnlarni tarjima qilishdagi muammolar

Xamdamova Afruzaxonim 2-kurs talabasi

Maxsus pedagogika fakulteti

Ilmiy rahbar: Tilyaxodjaeva Fazilya Muxamedjanovna

Fakultetlararo tillar kafedrasida dotsenti

fazilya_t@rambler.ru <https://orcid.org/0000-0002-4613-5213>

АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada tarjimani bugungi kundagi o'zni, sohaga oid matnlarni tarjima qilish zamonaviy usullaridan elektron lug'at, google tarjimon mashinaviy tarjima(MT) va uning yutuqli va kamchilik tomonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tajriba, matn, bilim, lug'at, jarayon, atamalar, ko'nikma

KIRISH

2021yili Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil qilingan Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligining asosiy vazifalaridan biri: "davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish uslubiyotlarini yaratish hamda ushbu yo'nalishda mutaxassislarning malakasini oshirishda ko'maklashish"dir.[2] Shu vazifani xayotga tadbiq etish maqsadda 2023-2024 o'quv yilidan boshlab Qo'qon davlat pedagogika institutida uchun ingliz tilini professional faoliyatda foydalanish uchun o'rgatish boshlandi.

Buning uchun silabuslarda xar bir yonalish uchun mahsus matnlar tayorlandi. Albatta o'qituvchilar uchun bu ancha qiyin bo'ldi, chunki o'zi tushunmagan sohani talabalarga o'zga tilda yetkazish murakkab ish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tarjima insoniyat kundalik hayotining ajralmas qismidir. Ilgari u madaniy, diniy g'oyalar, badiiy va ilmiy asarlarni targ'ib qilishga hissa qo'shgan. Bugungi kunda tarjima odamlarning kelib chiqishi va yashash mamlakatidan qat'i nazar, sohaga oid axborot almashish va muloqot jarayonining muhim qismidir. Ma'lumki, tarjima tillararo muloqotga to'siq bo'lgan joyda paydo bo'ladi.



Tajriba ko'rsatadiki, so'z yodlashni eng oson yoli o'rganilayotgan chet tilida ko'proq o'qishdir. Chet tilida har kuni matn o'qiganimizning yana bir foydasi shundaki, o'rgangan grammatik mavzularimizni matnda ishlatilganligini ko'rib grammatik bilimlarimizni yanada mustahkamlab boramiz.

Qiyinchiliklar:

1. Yuklangan lug'tlardan matnning ma'nosiga mos tarjima topish.
2. Talabalarni o'z sohasini ona tilidagi bilimlarini yaxshi bilish.
3. Grammatik shaklini to'g'ri tarjima qilish.

Natijada quyidagi gapda:

Traditionally, the disease is classified according to severity...

'Severity' so'zini google tarjimonga asoslanib talaba quyidagicha tarjima qiladi:

An'anaviy ravishda kasallik zo'ravonlik darajasiga qarab tasniflanad...

The traditional degree of severity is divided into the following...

An'anaviy zo'ravonlik quyidagilarga bo'linadi: debillik

Albatta bu gaplarda hech qanday 'zo'ravonlik' haqida gap ketmaydi.

*In 1959, M.S. Pevzner **proposed** a classification, a typology of states, in which she noted three forms of a defect:*

Bu gapdagi state so'zini yana google tarjimaga ishonib talaba gapda quyidagicha tarjima qiladi:

1959 yilda M. S. Pevzner davlatlarning tasnifi, tipologiyasini taklif qildi.

Albatta lug'atda state so'zining ma'nolaridan biri 'davlat', lekin bu matnda davlat haqida emas, balki bolalarni kasalligining 'holati' haqida gap ketyapdi.

Quyidagi muammolar tufayli atamalarni tarjima qilish qiyin vazifa bo'lishi mumkin:

1. Madaniy farqlar: Turli madaniyatlarda atamalar turli ma'nolarga ega bo'lishi mumkin va to'g'ridan-to'g'ri tarjima har doim ham mos kelmasligi mumkin. Misol uchun, ingliz tilidagi 'yuz' atamasi ham odamning boshining old tomoniga, ham uning obro'siga yoki ijtimoiy mavqeiga ishora qilishi mumkin, lekin ba'zi tillarda bu ma'nolar turli so'zlarni talab qilishi mumkin.



2. Texnik til: Tibbiyot, huquq yoki muhandislik kabi texnik sohalarda qoʻllaniladigan atamalarni toʻgʻri tarjima qilish qiyin boʻlishi mumkin, chunki ular koʻpincha boshqa tilda osonlikcha yetkazilmaydigan aniq maʼnolarga ega

3. Neologizmlar: Turli sohalarda doimiy ravishda yangi atamalar yaratilmoqda va maqsadli tilda ekvivalent atama boʻlmasligi mumkin. Bunday hollarda tarjimonlar yangi atama oʻylab topishi yoki maʼnoni yetkazish uchun tavsiflovchi iboradan foydalanishi kerak boʻladi.

4. Idiomatik iboralar: Idiomatik yoki majoziy maʼnoga ega boʻlgan atamalarni tarjima qilish qiyin boʻlishi mumkin, chunki tom maʼno boshqa tilda maʼnoga ega boʻlmasligi mumkin.

5. Noaniqlik: Ayrim atamalar bir nechta maʼnoga ega boʻlishi mumkin va tarjimon atama ishlatilayotgan kontekstga qarab toʻgʻri maʼnoni aniqlashi kerak.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki ilmiy va texnik matnlarni tarjima qilish jarayonida quyidagi talablarga amal qilinishi lozim:

- ✧ tarjima ekvivalentiga,
- ✧ tarjima aniqligiga,
- ✧ tarjima maʼlumotlar sifatiga,
- ✧ tarjima mantiqiyiligiga va
- ✧ uning yoritilish sifatiga.

Sohaga oid matn sifatli tarjimaga ega boʻlishi uchun, tarjimon quyidagi bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishi lozim: chet tili nazariyasi, tilning fonetikasiga, leksikasiga va grammatik tuzilishi haqida bilimga ega boʻlishi lozim.

Ilmiy va texnik matnlarni tarjima qilish xususiyatlar koʻnikmasi amaliyotiga lingvistik amaliy bilimlardan tarjima usullari, transformasiya, soʻzlar ekvivalentini almashtirish koʻnikmasi, soʻzlar qoʻshish koʻnikmasi, atamalar bilan tasvirlash koʻnikmasi va hakoza.

Matnni tarjima qilish jarayonida gap mazmuni va jummalarni ishlata olish ekstralingvistik bilim va qobiliyatiga ega boʻlish lozim (bunda maxsus ilmiy – texnik matnni tarjima qilishda yetarli maʼlumotlarga ega boʻlish talab qilinadi). Eng asosiy qiyinchiligi tarjimada bilinmas muammolardan biri bu tarjimon “ilmiy tarjima” nima ekanligini toʻliq tushunchaga ega boʻlmaslik. Ilmiy tarjimoni



muvoqafiyatli bajarish uchun, uni boshqa tarjima turlaridan farqi nimada ekanligini tarjimon tasavvurga ega bo'lishi shart.

Qayta ko'rib chiqish tarjimon tajribasiga yoki matnning xususiyatiga bog'liq bo'lishi mumkin. Tarjima agentliklarida revizionerlar tahlil qilish uchun yollanishi mumkin, ammo freelancer o'z ishlarini qayta ko'rib chiqish kerak. Farmasevtik matnda, qonunlarga qarab, qayta ko'rib chiqishni talab qiladi, chunki asl matndagi ma'lumotlar noto'g'ri tarjima qilganda zarar yetkazishi mumkin.

Shuningdek, tarjima agentliklari tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan ba'zi uslubiy qo'llanmalar bo'lishi mumkin, ularga rioya qilish kerak. [13] Texnik yozuvning maqsadi, qanday qilib bir narsani qilishni tushuntirishdir. Texnik tarjima shunga o'xshashdir, ammo u qandaydir biron qanday qilib biron bir narsani qanday amalga oshirishini tushuntirishga harakat qiladi.

Sohaga oid matnlarni tarjima qilishni talabalar ko'pincha mashinaviy tarjima (MT) yoki kompyuter yordamida bajaradi. Ushbu tarjima usuli inson yordamisiz manba tilidan tarjima tiliga tarjimalarni yaratish uchun turli xil kompyuter dasturlaridan foydalanadi. Mashinada tarjima qilishning turli usullari mavjud. Bepul qidiruv tizimlari ko'rinishidagi ko'plab mashina tarjimonlari internetda mavjud, lekin tarjima to'g'ri bo'lishi uchun talaba o'z sohasini yaxshi bilib sohaga oid so'zlarni to'g'ri tarjima qilaolishi kerak.

XULOSA

Asosiy maqsad ingliz tilida yozilgan sohaga oid matnlarni va so'zlarni to'g'ri tushunaolish va ingliz tilida sohaga oid maqola yoki tazyiklar yoza olishni o'rgatish. Buning uchun: Yangi matn o'qishdan oldin talabalarning avvalgi olingan bilim va ko'nikmalarini faollashtirish uchun og'zaki nutq bo'yicha mashqlar va topshiriqlarni ishlab chiqish. Mazkur maqolamiz professional tarjima usullarini yaratishda qol keladi degan umiddamiz.

ADABIYOTLAR

1. ON MEASURES FOR EFFECTIVE ORGANIZATION OF PROMOTION OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES

<https://lex.uz/docs/-5431845>



2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoevning «Oliy Ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori Toshkent sh., 2017 yil 20 aprel, PQ-2909-son

3. Alimsaidova Sayyora Amideevna. "Historical and literary texts as the basis for teaching a non-native language." *Current research journal of pedagogics* 2.10 (2021): 204-208.

4. Тиляходжаева, Ф. М. (2016). Проблемы использования машинного перевода в вузах Узбекистана. In *Актуальные проблемы филологии* (pp. 74-77).

5. Israilova G.M. Analysis of the synonymic rows of the verb “see”. December 2022. *Journal of Positive School Psychology*.

6. TILYAXODJAYEVA, F. (2022). EFFECT OF THE STYLISTIC MEANS IN THE SHORT STORIES (ON THE EXAMPLE OF SHORT STORIES BY P SHYUT).

7. Mukhammadjon Solijonov. Linguistic and extralinguistic factors forming the conceptual field of parables. *International journal of social science & interdisciplinary research* (2022): Pp. 414-417.

8. Solijonov Mukhammadjon. Basics of linguocultural analysis of literary text. *International Journal of Early Childhood Special Education*. Vol 14, Issue 07 2022. – Pp. 2197-2201.

9. Muhamedjanovna, Tilyakhodzhaeva Fazilya. "FROM THE EXPERIENCE OF USING THE CLIL METHODOLOGY IN UZBEKISTAN." *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603* 11.12 (2022): 249-255.

10. Назаренко О. С. Анализ ошибок студентов при переводе письменных текстов // *Lingua mobilis*. – 2012. – №. 1. – С. 134-137.

11. Степанова, М. М. Анализ переводческих ошибок в подготовке преподавателей перевода / М. М. Степанова // *Дидактика перевода: материалы научной конференции / Под ред. проф. В.Н. Базылева*. – М.: Гос. ИРЯ им. А.С. Пушкина, 2010.



12. Tilyakhodzhaeva F. M. Some Problems of the Use of Authentic Texts in a Foreign Language Lessons in the Uzbek Audience //Miasto Przyszłości. – 2022. – T. 30. – С. 319-320.

13. Tilyakhodzhaeva F. M. FORMATION OF NATIONAL SELF-CONSCIOUSNESS OF STUDENTS IN THE CLASSROOM OF A FOREIGN LANGUAGE //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – №. 09. – С. 288-291.

14. ТИЛЯХОДЖАЕВА Ф. М., МАРИПОВА Х. ПРОЕКТ" EARLY ENGLISH AT SCHOOL IN UZBEKISTAN" //БУДУЩЕЕ НАУКИ-2015. – 2015. – С. 407-409.



**SHARQ MUTAFAKKIRLARI FALSAFIY QARASHLARIDA
MA'NAVIY BARKAMOL INSON TARBIYASI**

Mamadaliyev Muzaffar Umarovich

*Andijon davlat chet tillari instituti Roman-german va slovyan tillari
fakulteti*

*Ijtimoiy gumanitar fanlari, pedagogika va psixologiya kafedrasi
o'qituvchisi*

m.u.mamadaliyev@mail.ru +998902100402

Maqolada sharq mutafakkirlari ilmiy falsafiy merosi, barkamol avlodga tarbiyasi, inson ma'naviyatini boyitish ma'naviy meros, ma'naviy yetuklik kabi masalalar haqida fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: inson, ma'naviyat, aql, adolat, axloq, ma'naviy meros, dunyoqarash, insof, diyonat, mehr

В статье рассматриваются научно-философское наследие мыслителей Востока, воспитание гармонично развитого поколения, обогащение человеческой духовности, духовного наследия, духовной зрелости.

Ключевые слова: человек, духовность, интеллект, справедливость, нравственность, духовное наследие, мировоззрение, честность, благочестие, доброта

The article discusses the scientific and philosophical heritage of Eastern thinkers, the education of a harmoniously developed generation, the enrichment of human spirituality, spiritual heritage, spiritual maturity.

Key words: man, spirituality, intellect, justice, morality, spiritual heritage, worldview, honesty, piety, kindness

Buyuk alloma va ajdodlarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak. [1.40]

Bugungi kunda mamlakatimizda ma'nan sog'lom, yuksak bilimli va intellektual salohiyatli barkamol avlodni tarbiyalash eng muxim va muqaddas vazifaga aylangan. Zero barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir. Ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash xalqimizning azaliy orzularidan biri bo'lib, ajdodlarimiz bu masalada ilmu-ma'rifat, ma'naviyat va madaniyat tushunchalarini qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillik sari yetaklab bilimli inson qilib kamol toptirish yo'llarini doimo izlaganlar. Insoniyat tarixiy taraqqiyotning barcha davrlari doimiy harakat va rivojlanish mavjudlikning yetakchi omili ekanligini anglatib keladi. Insoniyat ma'naviy va jismoniy harakatni tashkil etish



orqali o'zining bugungi fiziologik-anotomik ko'rinishiga kelibgina qolmay, tana rivojiga muvofiq ruhiyatini ham boyitishga uringan. Har bir davlat, jamiyat taraqqiyoti davomida yangi avlod yuksak ma'naviyatini yangidan yaratmaydi, balki ajdodlardan qolgan moddiy va yuksak ma'naviyat negizlariga tayanadi, ajdodlardan boyliklarni qabul qilib, ularni ijodiy davom ettiradi. Yangi qadriyatlarni yaratish uchun esa ajdodlar yuksak merosini o'zlashtirish zarur bo'ladi. Inson yer yuzida mavjud jonzotlar orasida eng mumtoz, eng qadimiysidir. Inson shaxsi esa eng olijanob ijtimoiy qadriyatdir. Xalqimiz o'z taraqqiyoti davomida erishgan va yaratgan madaniy boyliklardan, axloqiy qarashlar va qoidalaridan unumli foydalanmasdan milliy qadriyatlarni anglaydigan yurtsevar va xalqparvar yuksak ma'naviyat egasi bo'lgan yoshlarni kamolotga yetkazish mumkin emas. Chunki ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy meroslar barcha davrlar uchun kerak bo'ladigan ilg'or fikrlar bugungi taraqqiyotimiz uchun ham katta ahamiyatga ega.

Mutafakkirlarimizning ilmiy merosi uning jamiyatda tutgan o'rni, yoshlar ta'lim-tarbiyasi haqidagi qimmatli va dono fikrlari bilan bugun va kelajak yoshlarimiz ongu tafakkur dunyosini ma'naviyatini oshirish mumkin. Shuning uchun ham mutafakkirlar ilmiy merosini jamiyat hayotidagi ahamiyatini o'rganish hamda ularni yoshlarga etkazish muxim vazifa sanaladi. Eng qadimgi yozma manbalardan biri zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"dir. Avestoda inson kamoloti undagi axloqiy tarbiya masalasi badiiy uslubda yoritilgan bo'lib, ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom, ezgu fikrli, bukilmaz irodali, falsafiy bilimli inson shaxsi, orzusi ulug'lanadi.

Inson ma'naviyatini boyitish uni yuksak komillik cho'qqisi sari yetaklovchi asosiy manba bu "Qur'oni Karim" va "Hadisu sharif"dir. Mutafakkir va qomusiy olimlarimiz bu manbalarda keltirilgan ma'lumotlar inson ma'naviyati, uning asosi bo'lgan botiniy va zoxiriy axloqiga oid ibratli na'munalar, maslahatlar, hikoyatlar asrlar mobaynida ajdodlarimiz hayotida tarkib topgan milliy urf-odatlar ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlab kelganlar.

O'zbekiston respublikasining birinchi prezidenti I.Karimov Buyuk allomalardan biri Imom al-Buxoriy haqida fikr yuritar ekan, "Buyuk vatandoshimiz bashariyatga tengsiz ma'naviy meros qoldirib ketdi. Bu merosning gultojisi – eng ishonchli hadislar to'plami – "Al-Jome' as-sahih" islom dinida Qur'oni Karimdan keyingi ikkinchi, butun dunyo musulmonlari e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'idir" [2.185] – deb g'ururlanib gapiradi.

Bunday ulug' zotlardan yana biri Burxoniddin Marg'inoniy bo'lib, u zot yashagan o'rta asrlarda ijtimoiy hayot nihoyatda ziddiyatli bo'lgan. Bu ziddiyatli hayot yechimini topish uchun odamlarning ibratli hayoti, pok e'tiqodi, olijanob insoniy fazilatlaridan tashqari, o'z davri qonun-qoidalarini, shariat



ahkomlarini o'zida mujassam etgan nodir asarlar yaratish zaruriyati vujudga keldi. Bu masala buyuk yurtdoshimiz Burxoniddin Marg'inoniy tomonidan bajarildi. Uning "Hidoya" asari buning yorqin dalilidir. Markaziy Osiyo allomalari bu jamiyatning, boshqacha aytganda Sharq demokratiyasining g'oyaviy poydevoriga ta'mal toshini qo'yganlar. Jumladan, O'rta asr uyg'onish davri allomalaridan Abu Nasr Farobiyning fozil jamiyat haqidagi fikrlari, fozil va adolatli jamoaning odamlari eng go'zal va yaxshi maqsadlarga, xamda umumiy manfaatlarga erishish yo'lida bir-birlariga yaqindan yordam beradi degan g'oyasida asoslangan.

Abu Nasr Forobiy ijodida ilm-hikmati, aql va adolat, adolatli bo'lish tushunchalari inson ma'naviyatining asosi sifatida e'tirof etiladi. Allomaning fikricha, inson o'rtasidagi munosabatlarning ezgulik yoki yovuzlikka asoslanishi adolat mezoniga amal qilinganlik yoki amal qilinmaganlik bilan belgilanadi. Forobiy bilim va aql masalasiga to'xtalar ekan "Aqlli deb shunday kishiga aytamizki, unda o'tkir zehn-idrok bilan birga fazilatli ham, bo'lsin. Bunday kishi o'zining butun qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan o'zini saqlashga va torishga qaratgan bo'lmog'i lozim. Shunday odamgina aqlli va to'g'ri fikr yurituvchi deb atash mumkin". [4.182]

Ma'naviy barkamol inson tarbiyasida ularning intellektual saloxiyati va jismoniy jihatdan tarbiyalashda Abu Rayhon Beruniy ham fozil jamiyatda yashovchi komil inson, o'z or-nomusini bilgan va qadr-qimmatini saqlagan, oliyjanob, muruvvat egasidir deb adolatli jamiyatni barpo etish uchun komil insonni shakllantirishga muhim ahamiyat beradi.

Abu Rayhon Beruniyning fikricha, ijtimoiy adolat sub'ektlar o'rtasidagi munosabatni mo'tadil bo'lishini ta'minlabgina qolmay, shu bilan birga jamiyat rivojini ham kafolatlaydi. Shu sababli alloma adolatsizlik qonunsizlik bilan birga jamiyatdagi mavjud yomonliklar hamda ijtimoiy xalokatlarning sababi ekanligiga alohida urg'u beradi.

Zamonaviy sharoitda jamiyatda ijtimoiy adolatning qaror topganligi uning ma'naviyatini belgilovchi mezonlardan biri sifatida qay darajada ulug'lansa, Abu Rayhon Beruniy davrida ham ana shunday ahamiyat kasb etgan. Bu fikrning isboti alloma tomonidan bildirilgan quyidagi fikrda ham o'z isbotini topgan: "Agar adolat butun kamolotning majmui bo'lsa, yomonlik – uning qarama-qarshisidir"¹.

Ma'naviy barkamol inson falsafasi mazmundagi tadqiqotlarni olib borgan sharq falsafasining yetuk mutafakkirlaridan Abu Homid Muhammad G'azzoliy "Kimiyo saodat" asarida shu haqda bunday yozadi:

"Bilgilki, Haq taolo Odamni o'ynamoq va kulmoq va yemok-ichmoq uchun yaratmabdur. Balki Odamning yaralishida ulug' hikmatlar bordurki, hazrati Haq subhonahu va taolo o'zini tanitmoq uchun yaratibdur va (Haqni tanishda) ma'rifat

¹ <https://fayllar.org/abu-rayxon-beruniy-asarlarida-komil-inson-tarbiyasiga-qarashla.html?page=2>



yo‘lining ulug‘ xatarlari bordur. Agarchi odam azaliy ermasdir, lekin abadiydir, qiyomat kuni qayta tirilgandin keyin odamning vujudi shahristoniga o‘lim lashkari yo‘l topmas, abadul abad vujud shahri ma‘mur bo‘lib, mo‘minlar (iymonlilar) bihisht ne‘matidin masrur (rohatda) va kuffor do‘zah o‘tidin majrur (azobda) bo‘lg‘aylar”².

Muhammad G‘azzoliy inson vujudi odamni tuban ishlarga boshlovchi hayvoniy istaklarga to‘la, noqis ekanligini, ammo inson ruhi Arshi a‘lodan berilgani uchun qudratli ekanligini tushuntiradi.

Lekin inson ruhi bu dunyoning o‘tkinchi xoyu-havaslariga berilib, hayvoniy istaklarning quli bo‘lib qolsa, unday ruh ifloslanib, loyqalanib, haqiqatni ravshan aks ettirmay qoladi.

Bunday ulug‘ zotlardan yana biri Burxoniddin Marg‘inoniy bo‘lib, u yashagan o‘rta asrlarda ijtimoiy hayot nihoyatda ziddiyatli bo‘lgan. Bu ziddiyatli hayot yechimini topish uchun odamlarning ibratli hayoti, pok e‘tiqodi, olijanob insoniy fazilatlaridan tashqari, o‘z davri qonun-qoidalarini, shariat ahkomlarini o‘zida mujassam etgan nodir asarlar yaratish zaruriyati vujudga keldi. Bu masala buyuk yurtdoshimiz Burxoniddin Marg‘inoniy tomonidan bajarildi. Uning "Hidoya" asari buning yorqin dalilidir.

Burxoniddin Marg‘inoniy hayoti, faoliyati va u tomonidan yaratilgan ellik kitobni o‘z ichiga olgan "Hidoya" asari ma‘naviy merosimizning nodir manbai bo‘lib, u inson ma‘naviyatini boyitish, ma‘naviy-axloqiy tarbiyasi uchun muhim hisoblanadi. Shuning uchun Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov Burxoniddin Marg‘inoniy tavalludining 910 yilligi tantanalarida so‘zlagan nutqida shunday fikrlarni unga nisbat berib aytadi: "Burxoniddin Marg‘inoniy asarlarining mohiyati bo‘lmish adolat tuyg‘usi, o‘z davrining huquqiy mezonlari asosida yashash, o‘zganing mol-mulkiga ko‘z olaytirmaslik, haromdan xazar qilish, insof va diyonat, mehr-oqibatlar bugungi kunda ham ma‘naviy hayotimiz asoslarini tashkil etadi, desak hech qanday xato bo‘lmaydi". [3.119]

Abu Ali ibn Sino jahon madaniyatiga betakror hissa qo‘shgan serqirra olimlardan biridir. U o‘z davri ilmining deyarli barcha sohalari bilan shug‘ullanib, fanlar rivojida salmoqli iz qoldirdi. Tarixiy yozma manbalarga tayanib aytadigan bo‘lsak buyuk alloma 450 dan ortiq asar yozganligi ta‘kidlangan. Bizgacha ularning 250 nafarga yaqini yetib kelgan. Buyuk alloma Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari necha asrlar davomida yevropaning eng nufuzli oliy o‘quv yurtlarida asosiy tibbiyot darsliklaridan biri sifatida o‘qitib kelingani, dunyo miqyosida “meditsina”, “sog‘lom turmush tarzi” degan tushunchalarning fundamental asosi bo‘lib xizmat qilgani, albatta, chuqur hayotiy va ilmiy zaminga

² Abu Homid G‘azzoliy «Kimyo Saodat» (Ruh haqiqati) «Adolat» Toshkent 2005 14-b



ega. Aniqroq aytadigan bo'lsak ibn Sinoning butun ilmiy faoliyati dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruhi uning ma'naviy negizi rivojlantirishga ulkan ta'sir o'tkazgani barchamizga ayondir. Mutafakkirning asalarida ma'naviy barkamollik, yuksak falsafiy fikrlar, estetik faoliyat, badiiy adabiyot qonuniyatlari ilgari surilganligini ko'rishimiz mumkin.

Abu Ali ibn Sino barkamol insonni shakllantirishda birinchi o'ringa insonlar o'rtasidagi axloqiy munosabatlarni qo'yadi. Yuksak axloq sohibi bo'lishga esa ma'rifat yordamida erishiladi. Olimning fikricha, axloqiy munosabatlarning yuksalishi jamiyatning ma'naviy-axloqiy sog'lomligi va sobitligini ta'minlaydi. Inson vujudi istaklari uning ruhini tubanliklar sari boshlab, haq yo'ldan adashtirishini Ibn Sino o'z qahramoni Hayy ibn Yaqzon tilidan bunday tushuntiradi: "Agar seni biror firibgar yo'ldan ozdirsa, ishing chatoq. Tevaragingdagi sendan ajralmaydigan bu omillar (ishchi, xizmatchilar, quloq, ko'z, qo'l-oyoq va boshqa a'zolarining hoyu xavaslarini nazarda tutiladi) yomon oshnalaringdir. Sen ulardan osonlikcha qutulolmaysan, ular seni yo'ldan uradi. Ularning fitnasidan seni halollik va pokizalikkina saqlab qolishi mumkin".

Ulug' sohibqiron Amir Temur nafaqat o'zbek xalqi, balki Markaziy Osiyo hududida yashovchi barcha xalqlarning tarixiy taraqqiyotini ta'minlashda ulkan hissa qo'shgan shaxslardan biridir. Amir Temur fenomeni nafaqat jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojini ta'minlashdagina aks etib qolmay, shu bilan birga yuksak ma'naviyatga va axloqiy fazilatlariga ega shaxs timsoli sifatida ham namoyon bo'ladi. Amir Temur ma'naviyatining eng ustuvor jihati uning davlat boshqaruvi hamda fuqarolarga bo'lgan munosabatda ham adolatga tayanganligidir. Bu holat sohibqironning kundaliklarida qayd etilgan quyidagi fikrlarda ham o'z tasdig'ini topgan: "Zolimdan mazlumning xaqqini odim. Zolim yetkazgan moddiy va jismoniy zararlari isbotlaganimdan keyin, uni shariatga muvofiq ikkisi o'rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o'rniga boshqasiga jabr zulm yetkazmadim [5.75], "Kim menga do'stlik qilsa qadrladim, do'stligini unutmamim va unga muruvvat, ehson, izzatu ikrom ko'rsatdim". [5.77]

Buyuk mutafakkirlarimiz qoldirgan ma'naviy merosimiz bizni ma'naviy barkamollik sari yetaklab vatanga sodiqlik, yurtga ishonch, xalqimizda ota-onaga bo'lgan hurmat, uni e'zozlash, ulug'lash hamisha yuqori darajada bo'lgan, bu esa ma'naviyatimizning, jamiyatda axloqiy normalarni qay darajada yuksak bo'lganligini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi fan texnologiyalar yuksak rivojlangan, kompyuter tarmoqlari ongimizni tobora ko'proq egallayotgan globallashuv asrida yoshlarimizni turmush tarzini to'g'ri shakllantirish, ularni ilm, kasb-xunarga to'g'ri yo'naltirish, jamiyatdagi maqsad va vazifalarini to'g'ri anglashlariga yordam berish masalalarida mas'uliyatimizni yanada oshirishimiz lozim.



Bu borada yosh avlod o'z ma'naviyatini yuksaltirish, ularni bilimlarini oshirish, yurtga sadoqat, vatanparvarlik, ezgulik, bag'rikenglik kabi tuyg'ularini yuksalishida ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosining o'rni benihoyat katta ekanligini anglab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. Т.: Ўзбекистон 2019 й
2. Каримов.И.А. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан кураимиз. 7-т. - Т.: Ўзбекистон 1999 й
3. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз.9-т. - Т.: Ўзбекистон 2001 й
4. Абу Наср Форобий. “Фозил одамлар шахри” Т, “А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти” 1993 й
5. “Темур тузуклари”. Б.Абдуҳалимов ва бошқалар. Т., “Ўзбекистон”, 2011 й
6. Mamadaliev, M. (2023). PHILOSOPHICAL KNOWLEDGE AS A FACTOR LEADING MAN TO TRUTH AND GOODNESS. В INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY (Т. 3, Выпуск 11, сс. 156–159). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10113191> Umarovich M. M. THE IMPORTANCE OF COOPERATION BETWEEN EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND FAMILIES ON THE BASIS OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF OUR ANCESTORS IN THE FORMATION OF YOUTH SPIRITUALITY //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 4. – С. 157-163.
7. Mamadaliev Muzaffar Umarovich. (2022). IN FORMING THE SPIRIT OF YOUTH PHILOSOPHICAL WORLDWIDE AND THE SCIENTIFIC SIGNIFICANCE OF OUR NATIONAL SPIRITUAL HERITAGE. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(4), 338–342. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/SKJ6E>
8. Mamadaliev, M. (2023). PHILOSOPHICAL KNOWLEDGE AS A FACTOR LEADING MAN TO TRUTH AND GOODNESS. В INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY (Т. 3, Выпуск 11, сс. 156–159). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10113191>
9. Artikov, T. A., & Mamadaliyev, M. U. (2023). ABU RAYKHAN BERUN'S VIEWS ON EDUCATION. В INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY (Т. 3, Выпуск 11, сс. 481–484). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10220673>
10. Umarovich, Mamadaliev. (2020). PHILOSOPHICAL KNOWLEDGE IS THE METHODOLOGICAL REGULATOR FOR THE DEVELOPMENT OF



ISIRC
INTERNATIONAL SCIENTIFIC INNOVATION RESEARCH CONFERENCE FRA

INTERNATIONAL SCIENTIFIC INNOVATION RESEARCH CONFERENCE

Volume 01, Issue 01, 2024

ALL DISCIPLINES. EPRA International Journal of Research & Development (IJRD). 197-198. 10.36713/epra4105. The article depicts the nature of philosophic knowledge, their difference from the knowledge received from other subjects and its role in the process of formation of spiritually developed person. **KEY WORDS:** Philosophical knowledge, natural knowledge, mysteries of the world, living education, intellectual eagerness, thinking absolutely, logical thinking, daily (ordinary) education (knowledge).



ФИЛОСОФСКИЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛИЗАЦИИ ДЕТЕЙ

PHILOSOPHICAL PROBLEMS OF CHILDREN'S SOCIALIZATION

Тохтасунова Г.А.

Преподаватель кафедры Гуманитарных наук,

Педагогике и психологии АГИИЯ

tohtasinovagulbahor5@gmail.com

Аннотация. Данная статья представляет философский анализ проблем социализации детей из Средней Азии. Рассматриваются ключевые философские аспекты, такие как эмпиризм и нативизм, конструктивизм и этика, в контексте формирования личности детей в этом многонациональном и многокультурном регионе. Статья также обсуждает проблемы и дилеммы, включая баланс между индивидуализмом и коллективизмом, автономией и воспитанием, а также влияние цифровых технологий на социализацию. В заключении рассматриваются философские пути решения данных проблем через образование, этику и учет культурных различий.

Abstract This article presents a philosophical analysis of the problems of socialization of children from Central Asia. Key philosophical aspects such as empiricism and nativism, constructivism and ethics are examined in the context of the formation of the personality of children in this multinational and multicultural region. The article also discusses issues and dilemmas, including the balance between individualism and collectivism, autonomy and nurture, and the impact of digital technology on socialization. In conclusion, philosophical ways to solve these problems through education, ethics and taking into account cultural differences are considered.



Ключевые слова: социализация детей, Средняя Азия, философский анализ, эмпиризм, нативизм, конструктивизм, этика, индивидуализм.

Keywords: socialization of children, Central Asia, philosophical analysis, empiricism, nativism, constructivism, ethics, individualism.

Социализация детей - это процесс, который определяет формирование личности каждого индивида и его взаимодействие с окружающим обществом. Этот процесс стоит в центре воспитания и развития детей, и влияет на их моральные, этические, социальные и культурные установки. Однако, за фасадом повседневных практик и принятых норм, лежат сложные философские дилеммы и аспекты, которые оказывают глубокое воздействие на будущее каждого ребенка и общества в целом. В данной статье мы взглянем в мир философских проблем, связанных с социализацией детей. Мы проведем анализ различных философских подходов к пониманию процесса социализации, а также выявим дилеммы, с которыми сталкиваются как родители, так и общество в целом.

Важно отметить, что наша цель - не только разобраться в сложных вопросах, но и предоставить инсайты и рекомендации для тех, кто заботится о воспитании и социализации новых поколений. Мы начнем с рассмотрения философских аспектов социализации, включая эмпиризм и нативизм, конструктивизм и этику. Далее, мы исследуем различные проблемы, такие как баланс между индивидуализмом и коллективизмом, автономией и воспитанием, а также влияние современных технологий на социализацию детей. Завершая наше исследование, мы обратим внимание на пути решения данных философских проблем в контексте образования и этики. Наша статья предоставит читателям понимание того, как философия может помочь улучшить практику социализации детей и создать более гармоничное общество, в котором каждый ребенок имеет возможность



развиваться как личность, сохраняя при этом свои уникальные черты и ценности. Погрузимся в мир философских рассуждений, которые скрываются за повседневными заботами о детях и их будущем, и начнем наше исследование философских проблем социализации детей.

Социализация в более широком смысле - это процесс усвоения культуры определенного общества, который осуществляется индивидом в течение всей его жизни. Такое понимание социализации прослеживается в различных социологических подходах к ее объяснению [1]. В процессе социализации индивид приобретает набор надбиологических поведенческих программ, которые формируют и поддерживают социальный порядок конкретного общества и его составных частей. Эффективность этого социального процесса во многом зависит от стабильности социального порядка, способности и желания членов общества соблюдать лежащие в его основе нормы и правила.

В более узком смысле социализация — это инструмент включения индивида в различные социальные пространства - организации, группы и сообщества. Условием, необходимым индивиду для вхождения в определенное социальное пространство, является принятие им определенной культуры поведения — норм и правил, обеспечивающих социальный порядок и регулирующих социальные процессы в этом пространстве [2].

Наряду с этим социализация является частью любой социальной технологии, направленной на формирование определенного социального поведения конкретных целевых групп или сообществ. Как часть социальной технологии, социализация - это целенаправленное привитие ценностей, норм, смыслов в определенной целевой социальной группе с целью формирования определенных моделей реагирования на любые социальные



стимулы. Эти модели представляют собой рекламные кампании, направленные на формирование спроса на различные товары и услуги у целевой аудитории; политические кампании, которые формируют политическое поведение электората в поддержку конкретного политика; социальные технологии создания и пробуждения протестных групп в разных странах с целью возмущения политических элит этих государств [3]. Чтобы заставить покупателей регулярно выбирать тот или иной товар или услугу, заставить электорат поддержать определенного кандидата на политический пост и заставить протестующих активно выражать свое недовольство нынешней властью в государстве, эти группы людей должны быть социализированы в определенных системах ценностей и норм, которые должны начать регулировать их поведение.

Таким образом, термин “социализация” выражает как общий процесс вхождения индивида в мир культуры человеческого общества, так и конкретные способы включения индивида в различные субкультурные пространства с определенными нормами и ценностями. Во всех этих случаях социализация выступает как процесс интернализации определенного культурного содержания; другими словами, это содержание представляет собой набор норм и ценностей, которые определяют социальное поведение индивидов.

Ключевой особенностью культуры человеческого общества, с нашей точки зрения, является ее рациональность. Именно эта особенность отличает мир человеческой культуры от мира природы, человеческое общество от других объединений. В связи с этим социализация - это процесс овладения рациональностью, который аналогичен овладению культурой [3].



Чтобы подробно обсудить этот тезис, необходимо определить рациональность и выявить ее существенные черты. Здесь мы сталкиваемся с самой сложной теоретической проблемой — задачей понимания и интерпретации “рациональности” как категории. Этот подход представляет собой универсальную (universum) социологическую теорию, основанную на принципах постнеклассического подхода в социологии. Эта теория является продуктом российской научной школы, хорошо зарекомендовавшей себя в традициях русской социальной и философской мысли. Автором этого подхода является профессор В.Г. Немировский, который представил основные теоретические принципы этой парадигмы в своих публикациях [4].

В рамках универсального подхода автор этой главы предлагает постнеклассическую (универсальную) социологическую теорию рациональности [6]. Основными понятиями в этой теории, необходимыми для объяснения культуры общества и социализации как процесса овладения культурой, являются “рациональность” и “иррациональность” (здесь мы вводим понятия, но основные постулаты концепции будут описаны более подробно в разделе “Теоретический подход”).

Рациональность в этой теории означает когнитивную самореференцию человеческого общества или его составных частей (социальных групп, институтов и организаций). “Когнитивная самореференция” подразумевает процесс, который используется любым обществом в процессе его существования и развития для создания рекурсивного слоя реальности, отражающего само существование общества посредством различных символических систем. Это символы естественного или искусственного языка, которые представлены на уровне коллективного сознания, например, вербально сформулированные нормы и правила социального поведения,



знания и коллективные мнения, а также ценности, выраженные в различных символах и действующие в различных сферах человеческой деятельности — науке, религии, профессиональной деятельности и в повседневная жизнь. Этот рекурсивный слой является символическим выражением пространства культуры человеческого общества.

Иррациональность с точки зрения нашего подхода - это набор экстракогнитивных (бессознательных) компонентов социального поведения, которые выходят за рамки любой вербальной и символической формы. Этими компонентами являются эмоциональные состояния, эффекты, привычки и другие поведенческие феномены, которые не становятся предметом рефлексивной деятельности индивидов, хотя они появляются и становятся значимыми для индивида в процессе социальных и групповых взаимодействий. В обществе они представлены на уровне социального бессознательного [5]. Исследователи называют эти компоненты разными терминами: коллективные чувства, эмоциональные ценности, неявные основополагающие предположения, ценностный опыт и т.д.

В свете постнеклассической (универсальной) социологической теории рациональности социализация - это процесс, включающий рациональные и иррациональные компоненты. Рациональные компоненты отличаются и тем, что они воспринимаются социальным субъектом и выражаются с помощью естественного или искусственного языка, в то время как иррациональные компоненты не становятся объектом восприятия и не имеют символического выражения. Например, рациональная составляющая любой социальной организации (университет, супермаркет, спортивная школа, промышленное предприятие и т.д.) представлена в форме уставов, документов, инструкций, положений, приказов, коллективных мнений и других символических выражений, которые формируют существование и



развитие организации. Иррациональная составляющая социальной организации выражается в эмоциях, переживаниях, смыслах ее членов, которые они испытывают по отношению к самой этой организации: ее целям, ее функционированию и корпоративным нормам, их собственному статусу в организации и другим аспектам. Как рациональные, так и иррациональные компоненты влияют на поведение членов организации.

Радиф учун “айлар” сўзининг танлангани ҳам бежиз эмас. Муаллиф унинг ўзидан олдинги сўз билан қўшма от ташкил этишидан фойдаланиб анча мураккаб тушунчани бир қадар содда ва ихчам тарзда тасвирлашга йўл очган. Аини пайтда қофия ва радифнинг ўзаро “ҳамкорлиги” шоир кўзда тутган маънонинг аниқ ва таъсирчан тарзда ифодаланиши учун энг муносиб имкониятни юзага чиқарган.

Алишер Навоий “Назм ул-жавоҳир” асаида нутқ маданияти ва нотик маънавиятига доир бир ҳадис (“Мо надама ман саката” – “Сукут сақлаган одам сўнг надомат қилмайди”)ни бундай шарҳлайди:

Ҳар кимсаки, нуктаси фаровон бўлмас,

Тил ранжига қолмоғлиги имкон бўлмас.

Кўп сўзлагучига гайри нуқсон бўлмас,

Ҳар кимки хамуш бўлди, пушаймон бўлмас [2].

Яъни, кимда бошқалар билмайдиган нозик маъноларнинг ифодасида сероблик бўлмаса, (яъники худа-беҳуда гаплар айтилавермаса), у кишининг тил туфайли ҳар хил ноқулайликларга дучор бўлиш имконияти ҳам йўқолиб бораверади (камаяди ёки йўқ бўлади). Кўп сўзлайдиган одамда хатодан бошқа нарса бўлмайди (Навоий бошқа бир ўринда кўп сўзлаган кўп хато қилади, деб таъкидлаган эди). Тўртликнинг яқунловчи мисрасида асосий хулоса ўз аксини топган: кимки жим қолса, унда ҳеч қачон пушаймонлик бўлмайди.

Нутқ ва нотикликка оид машғулотларда ҳар бир матннинг тегишли даражадаги тарбиявий куч ва қудратга эга бўлишига алоҳида эътибор бериш жоиз. Негаки, “таълим мазмуни таълим мақсадига кўра белгиланади” [3].



Шунда ҳам таълимий мақсад амалга ошади, ҳам ўқувчи ва талабалардаги маънавий фазилатларининг кўпайиши сари табиий йўл очилади. Охир-оқибатда эса уларнинг дунёқарашлари кенгаяди, бадий асарни тушуниш ва таҳлил қилишга оид кўникма ва малакалари янада такомиллашиб боради, яъники уларнинг умумий ривожланишларига ҳам муносиб бир ҳисса қўшилади. Мана шу мақсадлар учун Навоий асарларида жуда катта ички имкониятлар мужассамлашган дейиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами, Ўн бешинчи том, Назм ул-жавохир. – Т.: ЎЗФА “Фан” нашриёти, 1999. 171-бет
2. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами, Ўн бешинчи том, Назм ул-жавохир. – Т.: ЎЗФА “Фан” нашриёти, 1999. 173-бет.
3. Розиков О. Ўзбек тилидан дарс типлари. – Тошкент, Ўқитувчи, 1976, 14-бет.
4. Н.Т.Ahmedova. The role and importance of the east individual creators in the development of rhetoric subject. Journal of Positive School Psychology.2022. <https://journalppw.com/index.php/jpsp/article/view/13940>



**A.Oripov va E.Vohidov she'rlarida qo'llangan toponim va
antroponimlarning o'ziga xos xususiyatlari**

**Toshkent gumanitar fanlar universiteti "Amaliy va gumanitar fanlar"
kafedrası assistent o'qituvchisi Mo'minova Yulduz Aminboyevna.**

**Toshkent gumanitar fanlar universiteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-
kurs talabasi Nurullayeva Dinora Nurulla qizi**

Annotatsiya: A.Oripov va E.Vohidov kabi ulug' shoirlarimiz she'rlarida qo'llangan antroponimlar va toponimlarning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini ochib berilgan. She'rlarida qo'llangan toponimlarning va antroponimlarning bir xil shaklda berilishi, lekin har bir shoir ularni o'ziga xos bo'lgan eng yaxshi jihatlarni ochib berishgan. Shu bilan she'rlarida qo'llangan grammatik qo'shimchalarining she'rning ta'sir kuchuni oshirishdagi ahamiyatini ham ko'rishimiz mumkin.

Annotation: The unique features of anthroponyms and toponyms used in the poems of our great poets such as A. Oripov and E. Vahidov are revealed. Toponyms and anthroponyms used in their poems are given in the same form, but each poet revealed their best features. We can also see the importance of grammatical affixes in increasing the strength of poet.

Kalit so'zlari: antroponim, toponim, she'r, grammatik vositalar, O'zbekiston, o'zbekim.

Key words: anthroponym, toponym, poem, grammatical means, Uzbekistan, Uzbekim.

O'zbek adabiyotining eng zabardast darg'alaridan deya A.Oripov va E.Vohidovlarni barilla aytishimiz mumkin. Chunki ular yaratib ketgan katta maktab kelajak avlod uchun tugamasxazina va hayot yo'llarimizni yorituvchi mayoqdir. Bu ikki shoirni so'zdan sehr hosil qila oladigan so'z ustalari hisoblanadi. Ayniqsa, eng nafis, eng jarangli, eng tovlanuvchan so'zlar xazinasidan tuzilgan she'rlarini o'qiganda, ko'zimizga nur keladi. Har bir yaratgan she'rlarida rang- baranglik, biri ikkinchisini takrorlamaslik kabi ohori to'kilmagan so'zlardan foydalanishgan.

A.Oripov va E.Vohidov she'riyati o'ziga xos bo'lgan katta bir maktabni tashkil qiladi. Chunki hech kimnikiga o'xshamagan, inson qalbining tub -tubidan joy oladigan va vatan deya yashashga chorlaydigan asarlari bor. Shoirning xalqqa, xalqning esashoigabuqadardildoshvasirdoshqilgan fazilatlarini ham shudir. "Abdulla qaysi bir temaga qo'lurmasin, nima haqda she'r yozmasin, uning ko'zi oldida



Ulug' Vatan turadi, o'sha ulug' Vatanning farzandi sifatida qo'liga qalam oladi. Shu sababdan uning she'rlari doim hayotbaxsh, pafosibaland, ovozi dadil, ruhitetik",- deb yozadi Matyoqub Qo'shjonov.

Abdulla Oripov she'riyatining o'ziga xos tomonlari haqida so'z yuritilar ekan, uning she'rlarini xalqqa manzur qilgan xususiyatlaridan biri uning xalqchilligida, xalq tilida yozilganligidadir. Uning vatan madhiga bag'ishlangan "O'zbekiston" qasida alohida o'ringa egadir. Har bir shoir vatanni o'z nigohlarida yurakdan his qilgan holda tasavvur qiladi. Shunday ekan A.Oripovning "O'zbekiston" qasidasi ham vatanni ulug'lovchi, bobolarimiz qilgan jasoratlari kuylangan bo'lib qolmasdan unda inson tafakkuri lol qoladigan darajada toponimlar va antroponimlarning o'ziga xos jihatlari ham qo'llagan holda ochib berishgan. Antroponomika kishilar ismi, sharifi, familiyasi, taxallusi, laqabi kabilaro'rganiladi. Antroponimiya- tilda mavjud bo'lgan barcha atoqli otlar majmuidir. Bu fan ismga oid bo'lgan ma'lumotlar, ya'ni insonning urug'-aymog'i, otasi, millati, kelib chiqishi va insoniy fazilatlarini tahlil qiladi. Demak, antroponim bu har qanday atab qo'yilgan shaxsni chaqiradigan unga aloqador bo'lgan ismdir. A.Oripovning "O'zbekiston" qasidasida shunday antroponimlarni qo'llagan o'rinlarni ko'rishimiz mumkin.

Ko'klamningdan olib sururni, Dovrug' soldi ustoz Olimjon, G'afur G'ulom tuygan g'ururni Qilmoq mumkin dunyoga doston. O'zbekiston, Vatanim manim. Bu yerda Hamid Olimjon, G'.G' ulomkabi ijodkorlarning nomi qo'llash orqali orqali antroponimlarni yaratgan. Ularning nomini keltirishi ularning zabardast shoir dovrug'i olamni tutganligini va G'. G'ulomdagi hech kimnikiga o'xshamagan hech narsaga teng bo'la olmaydigan g'urur tuyganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga she'arning ta'sir kuchini oshirayotgan grammatik vositalardan biri qaratqich kelishigining "im" shakli orqali "im" egalik qo'shimchasi orqali omonimlik hosil qilingan. Bu kabi grammatik vositalarning qo'llanishi shoirning o'ziga xos bo'lgan qirrasini va she'ring, xalqchilligini, ohangdorligini oshiruvchi vositalardir. O'zbekiston, Vatanim manim deya she'ring o'ziga xos ohangdorlikni yaratish uchun shu shaklda qo'llagan. Aslida mening Vatanim shaklida bo'ladi. Lekin shoir o'ziga xos bo'lgan yo'nalish va nafislik yaratgan va har bir oxirgi misrani shu shaklda yakunlagan.

Qasidada faqat antroponimlar emas, balki toponimlar ham qo'llangan bo'lib, she'ring badiiyligini, ta'sirchanligini oshirgan yordam bergan. Toponim - joy



nomi yoki joy nomi bilan bog'liq holda yaratilgan so'z hisoblanadi. Toponimlar tilning lug'at boyligiga kiradi. Toponimika - bu geografik nomlar, ularning tarixi, kelib chiqishi, rivojlanishi va hozirgi holati haqidagi fandır. Toponimikani o'rganish til tarixi va nazariyasi uchun katta ahamiyatga ega. Qasidada shunday toponimlar qo'llangan bo'lib, ular ham o'z navbatini ma'lum bir grammatik vositalarning ham qo'llanishi she'rning jozibasini va ta'sir qilish imkoniyatini oshirgan.

Amerika — sehrli diyor, Uxlar edi Kolumb ham hali, Dengiz ortin yoritdi ilk bor, Beruniyning aql mash'ali. Kolumbda bor alamim manim, O'zbekiston, Vatanim manim.

Qasidani o'qir ekanmiz, unda qo'llangan toponimlar va antroponimlarni, balki grammatik qo'shimchalarning ham qo'llash bilan birga she'rning o'ziga xos bo'lgan ma'no qirralarini ham ochib bergan. Bu yerda qo'llangan “dengiz ortin yoritdi ilk bor” misrasida qo'llangan “N” qo'shimchasi tushum kelishigining qisqargan shakli va qaratqich kelishigining belgisiz ishlatilish holatini uchratish mumkin. Bu narsa she'rning ta'sir kuchini oshirishga va qo'shimchalarning naqadar yuqori darajada vazifa bajarishini ko'rishimiz mumkin. Aslida bu odatdagi tartibda belgili shaklda va qisqarmagan holatda bo'lganda “dengizning orti” va “ortini yoritdi” shaklida bo'ladi. Bu she'rdagi grammatik qo'shimchalar qaratqich va tushum kelishiklarini qo'llash orqali she'rning yanada ma'no qirralarini ochib bergan. She'rda Amerika toponimi qo'llangan bo'lib shu bilan birga u yerni “sehrli diyor” deya tasviriy vositalarni ham qo'llagan holda she'rga boshqacha ruh bag'ishlagan. Beruniy va Kolumb kabi antroponimlarni bir-biriga bog'liq holda ifodalash orqali she'rning qiymatini oshiruvchi vosita hisoblanadi. Yana bir misrasida Seni Chingiz g'azabga to'lib Yo'qotmoqchi bo'ldi dunyodan. Jaloliddin samani bo'lib Sakrab o'tding Amudaryodan. Sensan o'shal samanim manim.

Shoir shu darajada qasidada toponimlar va antroponimlarni ko'p qo'llaganki, ularning har biri o'z o'rnini va ahamiyatiga ega bo'lgan vazifalarni bajarishi bilan ajralib turadi. Amudaryo toponimi faqat toponim sifatida qarash emas, balki aslida Amudaryo nomlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan qo'shma ot holda ham ifodalanishi juda ahamiyatga egadir. Shoir shu darajada morfologik va sintaktik vositalardan foydalanganki, bir narsani bir nechta ma'no ifodalashi bu shoirning mahorati deyish mumkin. Mana shunday antroponim, toponimlar va Grammatik vositalarning qo'llash eng buyuk va so'z daryosini kashf qilgan E. Vohidovning “O'zbekim” qasidasi ham aynan “O'zbekiston” qasidasiga juda o'xshash bo'lgan



jihatlarni ko‘p uchratish mumkin. Bu ikki qasidada aynan birxil antroponimlar va toponimlarning qo‘llanishi, lekin har biri o‘z xususiyati va nimani ifodalab kelishi jihati bilan ajralib turadi. Qasidada shunday misralar bor:

Tuzdi-yu Mirzo Ulug‘bek

Ko‘ragoniy jadvalin,

Sirli osmon tokiga ilk –

Qo‘ydi narvon, o‘zbekim.

Mir Alisher na‘rasiga

Aks-sado berdi jahon,

She‘riyat mulkida bo‘ldi

Shoh-u sulton, o‘zbekim. Bu she‘rda qo‘llangan Mirzo Ulug‘bek, Mir Alisher antroponimlari ham xuddi A.Oripovning “O‘zbekiston” qasidasida ham qlangan bo‘lib bu yerda ikki shoir ikki xil vaziyatni ochib berishga harakat qilgan. A.Oripov Navoiyni kuchli so‘z ustasi ya‘ni qilich bilan qilolmaydigan ishni qalam bilan bitirganligini ochib bergan bo‘lsa, E.Vohidov esa she‘riyat turk dunyosida o‘zining ovozigaga ega bo‘lganligini ochib bergan. Mirzo Ulug‘bek bobomizni ham sirli osmon ilmini kashf etganligi va ilk narvonni qo‘yganligi bilan izohlab o‘tganlar. Bu bilan ikki shoirimiz qo‘llagan antroponimlar orqali o‘zbek olimlarimizning dunyoni hayratga soladigan darajada yuksak ma‘naviyatli, madaniyatli va g‘urur dunyosi shu qadar balandki, hech bir narsa bilan egib bo‘lmasligini ko‘rishimiz mumkin.

Yig‘ladi furqatda Furqat

Ham muqimlikda Muqim,

Nolishingdan Hind-u Afg‘on

Qildi afg‘on, o‘zbekim.

Bu yerda ham antroponim va toponimlarning birdaniga qo‘llash orqali chiroyli badiiylik yaratgan. Bu kabi antroponimlarning, toponimlarning birdaniga qo‘llanishi she‘rning naqadar grammatik vositalarga boyligi va nomlarning chiroyli qo‘llanishi bilan bog‘liq. Shu bilan birga shoir o‘zbekning buyuk insonlarini tilga olmasdan chet el yozuvchilarining ham nomlarini va joy nomlarini keltirish orqali yaratgan. Bu kabi vositalar ikki shoirimiz ijodida ham uchratish



mumkin. Bu esa she'rdagi qo'llangan toponim va antroponimlarning tarixi va nima sababdan shu shaklda qo'llanishi kabi vazifalarni ochib berishgan. Taxalluslarni qo'llash orqali ham antroponimlar hosil qilingan. Joylarga qo'yilgan nomlar, ya'ni toponimlar bugungi kunda ham ma'naviy meros, ham madaniy boylik, ham tilimizning qadimiy xususiyatlarini o'zida saqlab qolgan ko'hna tarixiy yodgorliklardan biri sanaladi: "Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urfodat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Nafaqat joy nomlari, balki juda ko'p narsalarga nom berish orqali ham tilimizning qay darajada boy ekanligini va o'zbek tilining imkoniyatlari shu darajada kengki har narsa o'z belgisi va nomiga ega. Shoirlarimiz ham bu hodisalarni hammasini o'z she'rlarida ochiq va ravshan ko'rsatib berganlar.

Foydalangan adabiyotlar:

1. A.Oripov. Tanlangan asarlar.- Toshkent.,
2. Erkin. Vohidov. Tanlangan asarlar.-T., Sharq, 2016.
3. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent2006;
4. "Tarixiy toponomika". Namangan 2010
5. To'ra Nafasov, Vazira Nafasova O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati. Toshkent "Yangi asr avlodi" 2007
6. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva. Toshkent-2010.



XALQ OG‘ZAKI IJODINING TURLI JANRLARIDA NUTQ

MADANIYATINING TAHLILI VA TAVSIFI

Hikmatxon Ahmedova, Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Xalq og‘zaki ijodi manbalarida qisqa, lo‘nda, oz, aniq, ma‘noli, mazmunli, mantiqli, rost, ta‘sirchan so‘zlash kabi nutq odobi va madaniyatiga doir xalq og‘zaki ijodi namunalaring mazmun mohiyati xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: nutq madaniyati, maqol, topishmoq, doston, ertak, qo‘shiq, shirinkalomlik, nutq odobi.

АНАЛИЗ И ХАРАКТЕРИСТИКА КУЛЬТУРЫ РЕЧИ В

РАЗЛИЧНЫХ ЖАНРАХ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА

Хикматхан Ахмедова, старший преподаватель Кокандского ГПИ

Аннотация. В статье размышляется о сущности примеров народного устного творчества в речевом этикете и культуре, таких как короткая, емкая, мелкая, ясная, многозначительная, осмысленная, логичная, правдивая, эффектная речь.

Ключевые слова: культура речи, пословица, загадка, эпос, сказка, песня, лицемерие, речевой этикет.

**ANALYSIS AND CHARACTERIZATION OF SPEECH CULTURE IN
VARIOUS GENRES OF ORAL FOLK ART**

**Hikmatkhon Akhmedova, Senior lecturer at
Kokand State Pedagogical Institute**

Annotation. The article reflects on the essence of examples of folk oral creativity in speech etiquette and culture, such as short, capacious, shallow, clear, meaningful, meaningful, logical, truthful, effective speech.

Keywords: culture of speech, proverb, riddle, epic, fairy tale, song, hypocrisy, speech etiquette.



Нутқ маданияти башариятнинг сўздек муқаддас неъмат билан зийнатланган куни билан тенгдош десак, табиийки, хали ёзув бўлмаган пайдан, оғзаки ижод намуналари пайдо бўлган замондан мазкур масалага эътибор қаратилган. Халқ оғзаки ижодининг турли жанрлари – мақол, топишмоқ, дoston, эртақ, аския, ривоят, афсоналарда чиройли нутқ, маданиятли нутқ ҳақида кўп сўз борган, қаҳрамонлар тилининг ширинлиги, муомаласининг некбинлиги билан халқнинг орзу-умидларидаги қаҳрамонлар сифатида яшовчанлик касб этган. Айтимчилар ўз қаҳрамонларининг нутқига алоҳида эътибор билан қараган – уларнинг диолог, монологларида сўз нафосатининг қайралган ва кутилмаган гўзалликларини инкишоф этганлар. Сўз ва нутқнинг фасоҳати халқ яратган мақол ва топишмоқларда ҳам ўз ифодасини топган.

Лингвистиканинг асоси сўз бўлгани каби, нутқ маданиятининг асосини ҳам сўз ташкил этади. Бу соҳада сўзнинг ўзигина эмас, балки шу сўз ким томонидан, қандай шароитда ва қай йўсинда истифода этилаётгани муҳим. Шу сабабдан қадимдан то бугунгача яратилган ва яратилаётган оғзаки ва ёзма манбаларда сўз ва унинг ижросига (нутқ маданиятига) эътибор муҳим бўлиб келган. Халқнинг оғзаки ижоди намуналари бўлмиш асотир (миф), афсона ва эртақларда асарларнинг бош қаҳрамонлари ёвуз кучлар (девлар, монстрлар, ялмоғизлар ва б.)га дуч келганларида ширинкаломлик билан салом беришлари уларни тасодифий фалокатлардан асраб қолганликлари – “Саломинг бўлмаганида икки ямлаб бир ютар эдим” деган клешаларнинг пайдо бўлишига сабаб бўлган. Ёки “Зумрад ва Қиммат” эртагида Зумрад ўрмонда адаштириб келинганида ширинсуханлиги, саломини қанда қилмаганлиги, меҳнатсеварлиги туфайли бойликларга сазовор бўлиб, соғ-саломат ўз хонадонига қайтганлиги, Қимматнинг эса инжиқ ва эркатойлиги, кўпол тиллилиги оқибатида шарманда бўлганлиги воқеалари ҳам ботинан



тил маданиятига, бинобарин, нутқ маданиятига алоқадорлиги билан эътиборни тортади. “Алпомиш”, “Кунтуғмиш”, “Маликаи айёр”, “Равшан”, “Юнус пари”, “Мисқол пари” сингари халқ достонларида айтимчиларнинг тил маҳорати туфайли насрий ва назмий матнларнинг тил материаллари билан шаклланишидаги фасоҳати, уларда истифода этилган лингвистик унсурлардаги коннотативлик, таъсирчанлик даражаси ҳам нутқ маданиятининг ўзига хос кўринишлари сифатида эътирофга лойиқдир. Чунончи, халқ достонларида кўп дуч келинадиган сажъларда айтимчи нутқининг фасоҳати янада бўртиб намоён бўлади. Шу жиҳатдан “Тоҳир ва Зухра” достонида бундай сажъ намунасига дуч келинади. Куютир саҳросида саргардон бўлиб кезган Тоҳир юра-юра Гўшаи товусон деб аталадиган бир чаманзор жойга етишади. Бахши сажъ санъатидан маҳорат билан фойдаланиб, ҳар жойида мрамрдан ҳовузлар қилинган бу ажойиб гўшани “думини чодир қилиб юрган товуслар, булбуллар сайраган, тўтилар куйлаган, жами қушлар гир теварагини тўйлаган, кўрганни ҳайрон айлаган” деб таърифлайди. Ёки “Кутуғмиш” достонида Холбека таърифида айтилган ушбу сажъ ҳам нутқнинг гўзал кўриниши сифатида эътиборни тортади: Холбеканинг юзлари тўлин ойдаи, юришлари чопқиллаб юрган тойдай, сочлари шарқираб оққан сойдаи; у ёғида тўқсон беш, бу ёғида тўқсон беш, ўн кам икки юз кокили бор; бир томонини тилла сувига ботирган, бир томонини кумуш сувига ботирган, шамолда қотирган...

Халқ кўшиқлари матнида ҳам шеърий нутқнинг бениҳоя жозибали, маданий нутқ унсурлари билан зийнатланган мисраларга дуч келинадики, булар ҳам ўзбек халқи нутқ маданиятининг илдизлари узок ўтмишга бориб тақалиши, уларда инсон кайфияти, ақлу заковати, диду фаросатининг юксак даражада бўлганини кузатиш мумкин. Улардаги ташбеҳлар, метафора ва бошқа кўчимлар, муболағалар эшитгувчининг юрагини “жиз” эткизиш



баробарида, руҳиятига-да таъсир ўтказди. “Сунбула” аталмиш халқ кўшиғида бундай дейилади:

Фарғонада ўт ёқсам,
Андижонда тутуни.
Бу дунёда бормикан
Юрак бағри бутуни.
Бу дунёда бор бўлса,
Юрак-бағри бутуни
Қоғоздан ўчоқ ясай,
Гулдан қилай ўтинни...

Ёки “Галдир” (“Ишқда девона”) кўшиғидаги тил жозибаси, назокати ушбу мисралар мағзидан сезилиб туради:

Оқ илон, оппоқ илон,
Ойдинда ётганинг қани!?
Мен ёмондан айрилиб,
Яхшини топганинг қани!?
Оҳ урарман, оҳ урарман,
Оҳларим тутгай сани.
Кўз ёшим дарё бўлиб,
Балиқлари ютгай сани.

Айниқса, халқ мақолларида сўзнинг ва нутқ эгасининг нутқ жараёнидаги иштироки масаласига алоҳида диққат қилинган намуналари кўплаб учрайди. Ана шу нуқтаи назардан, халқ мақолларига, уларда сўзнинг қудрати, жозибаси, кишиларнинг нутқида сўзнинг иштироки мавзуларига дахлдор айрим намуналарини кўриб чиқайлик.

“Қиличнинг захри кетса ҳам, сўзнинг захри кетмайди” мақолида ҳам нутқда сўзни ишлатишдаги ҳушёрлик, кишининг дилига қаттиқ тегмайдиган



сўзларни истифода қилиш кераклиги хусусида гап боради. Шу ўринда бир қатор халқлар фольклорида кенг тарқалган “Дехқон билан айиқ” эртагини эслаш кифоя. Эртақда нақл қилинишича, деҳқон билан айиқ дўст тутунади. Улар узоқ вақт бирга, тотувликда ҳаёт кечирадилар. Кунларнинг бирида деҳқон айиқнинг баданидан келаётган тер ҳидидан жирканиб, ундан сассиқ хид келаётганидан шикоят қилиб, аччиқ бир сўз айтади. Бу сўз айиқни қаттиқ ранжитади. Шунда айиқ болтани олиб, деҳқонга тутқзади ва бошига қаттиқ урушини сўрайди. Деҳқон болтани олиб, айиқнинг бошига уради. Боши ёрилган айиқ ўкирганича ўрмонга кириб кетади. Орадан кунлар, ойлар, йиллар кечади. Кунларнинг бирида айиқ ўрмондан чиқиб келади ва деҳқонга рўбарў бўлади ва болта жароҳатлаган бошини деҳқонга кўрсатади. Деҳқон айиқнинг бошидаги жароҳат битиб кетганини кўради. Шунда айиқ боши ва кўксини кўрсатиб, “бошимга сен урган болтанинг излари битиб кетди. Бирок қалбимга сен етказган жароҳат хали ҳам битгани йўқ. Ҳар эслаганимда бу жароҳат янгиланиб, дилимни вайрон қилади”, дея деҳқонни изза қилади.

Мақолларда сўз, нутқ ва нутқ одоби хусусида келтирилган мисоллар инсонда нутқ маданияти, сўзлаш усуллари, сўз бойлиги талаб даражасида бўлиши, инсон мумкин қадар чиройли сўзлар, айрим ўринларда бадийлашган иборалар, халқ тилининг таъсирчан ва музайян ифодаларини ишлатиш меъёрларини ўзлаштириши ва буни одат тусига киритиши зарурлиги хусусидаги хулосаларга олиб келади.

Айрим бир топишмоқлар ҳам сўз, фикр, сўзга чечанлик, нутқ имкониятларининг серқатламлиги хусусида эканлиги билан диққатни тортади. Масалан, жавоби сўз, гап бўлган “Асалдан ширин, захардан аччиқ”, “Бировни суйдирар, бировни куйдирар”, “Оғзимни очдим, учди-кетди, Самарқанду Бухоро бориб етди”, “Оғиздан чиққанча меники, оғиздан чиққани элники”, “Асал эмас, ёқади, ари эмас, чақади” сингари



топишмоқларда сўз, унинг таъсирчанлиги ва жозибаси мужассам эканлигини сезиш қийин эмас.

Бир сўз билан айтганда, халқ оғзаки ижодининг турфа жанрларида инсонни “ашрафул маҳлуқот” қилган сўз, сўзлаш ва унинг одоби, қисқаси, нутқ маданияти борасидаги қарашлар мавжудлиги, нутқ маданияти ментал феъл-атвор бўлиб, халқнинг маънавий оламининг ажралмас қисми эканлиги кўп бора уқтирилганини сезиш ва ундан ибрат олиш мумкинлигини кўрсатади.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Мирзаев Т. Сўздан сўзнинг фарқи бор.// Ўзбек халқ мақолари. Т.: Шарқ, 2005. Б. 3.

Н.Бердиёров, Р.Расулов “Ўзбек тилининг паремиологик луғати” Тошкент: Ўқитувчи, 1984.

Ш. Шомақсудов, Ш. Шораҳмедовларнинг “Маънолар махзани” Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001.

Улуқов Н., Абдулҳамидова Л. Нутқ маданияти таҳлил ва талқинлари. – Т.Наврўз, 2017. Б.9.

Улуқов Н., Абдулҳамидова Л. Нутқ маданияти таҳлил ва талқинлари. – Т.Наврўз, 2017. Б.9.

6. То‘хлиев В. О‘zbek adabiyoti. Toshkent: O‘qituvchi, 2000. B.105

7. Mirzayev T. So‘zdan so‘zning farqi bor.// O‘zbek xalq maqolari. T.: Sharq, 2005. B. 3.

8. Uluqov N., Abdulhamidova L. Nutq madaniyati tahlil va talqinlari. – T.Navro‘z, 2017. B.9.



**PHRASEOLOGICAL ANALYSIS OF UNITS CONTAINING COUNT IN
ENGLISH AND UZBEKI**

Yusupova Maksuda Umidjonovna

*Teacher of the Department of Roman-German Philology, Faculty of Foreign
Philology, Urganch State University*

We understand that a specific national language serves as a mirror reflecting the worldview of its speakers, encapsulating their social and spiritual culture, domestic life, and the overall mindset of the nation. According to W.von Humboldt, "language is not a mechanical collection of words; the distinction between languages lies not in the divergence of sounds and signs, but rather in the divergence of worldviews. "In phraseology, specifically the exploration of quantitative units between two languages can be analyzed through studies of linguistic and cultural bonds. This analysis delves into the intricate interplay between language and cultural semantics" [1].

We briefly define the universal symbolic meanings of the existing numbers in the world culture in order to compare quantitative units in phraseology of the English and Uzbek languages considering their national-cultural specificities [2].

For instance, the number "one," which signifies not only "unity" but also serves as a symbol of "the first movement, the beginning." In the phraseology of both English and Uzbek languages, "one" conveys meanings such as "unity," "consensus," and "sameness, similarity." For instance, in English, the expression "(all) rolled into one" implies being gathered into one thing, while in Uzbek, "to make one" can mean both uniting and restoring friendship. Additionally, phrases like "to be one body, one soul" or "to put one's head on one pillow" denote getting married and living together for a lifetime as a couple [3, 4].

The symbolism of the number "two" extends to its representation of a changeable character and inner turmoil, embodying notions of conflict, opposition, and division. The binary opposition inherent in the number "two" creates a double



opposition. At times, both the numbers "one" and "two" carry connotative meanings related to the pronouns "I" and "you," with the number "two" also assuming connotative roles in phraseological units. For example, in English, "a two-edged sword" signifies two sides of the coin; "ride two horses (at the same time)" implies attempting to hang on to two boats; and "fall between two stools" denotes the difficulty of coming to a decision or choosing one of the two ways. In Uzbek, "to think twice" translates to hesitating or being unable to make a decision, while "two determinations" refer to two unknowns [4].

As for the number "three," it carries the meaning of abundance in idioms with counting content. In ancient cultures, "three" held a special significance, considered greater than "one" or "two," symbolizing multitude. This perception continues in modern English, as seen in expressions like "two's company, three's a crowd," suggesting that two is enough, more than three is too many. Positive connotations are also observed, such as in "third time lucky," indicating luck in the third attempt, or "three cheers for," expressing appreciation or congratulations. In Uzbek, there are only three countable phraseological units with the "three" component. One, with religious origins, is the phrase "triple talaq" in Islam, denoting the complete annulment of marriage for the separation of spouses. Another expression, "Even if you boil it three times, blood does not mix," implies that strangers cannot get along with each other. The third, "does not reach the end of four," signifies extreme poverty and destitution.

When looking at expressions with numbers in English and Uzbek languages, it is more noticeable that the numbers such as one, two and fractional numbers such as half and whole are used in the composition of expressions together with the verb to do.

It is known that numbers are words that mean quantity. However, not all expressions involving numbers have a "quantity" meaning. This theme is unique to



some of them. For example, we can cite expressions such as *to make one two, to make whole bread, to make half bread* .

To make two, the verb to make is used in the sense of combining with a quantitative units, multiplying, and increasing what you have. The themes "quantity", "movement", "performance", "multiplicity", "increase", "multiplication" are observed in it.

"To make whole bread" is used in the sense of providing things necessary for living. It shows such themes as "quantity", "movement", "performance", "fullness", "multiplicity". The phrase *"break the bread in half"* in the opposite sense of the phraseological unit with the same quantitative units is often found in our speech. This quantitative unit serves to express the reduction or lack of income due to a person's partnership. Among the themes of "quantity", "movement", "performance", the themes of "lack", "being" are emerging.

A metaphorical meaning arises based on the metaphorical transformation of a component of phraseological units with the content of quantitative units. It is used both in the form of free connection and with its phraseological meaning, in place of phraseological units such as *to cut a thousand and one, to put two feet in one boot, to put one's head on one pillow* . Even when a phraseological meaning is formed in such compounds, they retain their original form, a phraseological meaning that is not characteristic of free association occurs.

Phraseological units with quantitative units are formed with the help of pragmatic factors in order to figuratively express some concepts, and they are not used as free connections. Semantic transformation is a phenomenon characteristic of the internal system of phraseological units with quantitative units, this process is a form of transposition, in which the form of a universal phraseological unit does not change, but its meaning is figurative (figurative meaning). In the literary text, it



develops the meanings of phraseological units with forms a unique phraseological meaning.

Based on the semantic transformation of the phraseological unit "to put *one's head on a pillow* ", the meaning of " *to live a family life* " is formed in the text, and this combination is recognized as a phraseological combination. In this case, one meaning of a phraseological unit with countable content is not the basis for the second meaning. Semantic transformation takes place on the basis of simile. A phraseological unit with a quantitative unit having exactly the same structure expresses different meanings based on the same image. Phraseological units representing quantity are actualized on the basis of similes, phrases are semantically transformed, semantically reshaped, phraseological units, words , ascias occur.

It cannot be said that the purely nominative meaning is displaced by the connotative meaning in the quantitative phraseological unit "*one flower out of ten flowers has not opened*". The following example fully confirms this.

He was now twenty-three years old, and although one of his ten flowers had not yet opened, the worries that had befallen him early on had faded the smile from his pale face. (G'. Gulam. Mangulik).

In the phraseological units of the Uzbek language, some units of quantitative units are stylistically classified differently. For example, the phrase "*he has six legs and seven arms*" means "overjoyed, extremely happy". This quantitative phraseological unit is used again in the sense of "quick, who finishes everything quickly".

In Uzbek language, " *Put two feet in one boot* " - to be in a very difficult situation, " *Put two hands in one's mouth* " - to rush and strive to achieve more than necessary . the fact that the meaning of the phraseological units does not derive from the meaning of the words contained in, it reminds the complex



compounds that have undergone the phenomenon of lexicalization. It should not be forgotten that the reasoning that the resulting meaning does not come from the meaning of the words in the compounds is only related to their correct meaning.

List of used literature

1. Швачко С.А. Языковые средства выражения количества в современном английском, русском и украинском языках.– Киев: Вища школа, 1981. – 6-с.
2. Шакиров А.С. Семантические особенности имен -числительных, входящих в состав нумеративных фразеологизмов разносистемных языков // Фразеология в аспектах стилистики и словаря. Сб. научных трудов. – Самарканд, 1992. – 110-с.
3. Игнатьева Э.В. Средства выражения количественных отношений в системе имени в современном английском языке: дис.... к. филолог. н.: 10.02.20. – Москва, 1981. – 151 с.
4. M.U Yusupova., Sanoq tarkibli frazeologik birliklarning ingliz va o‘zbek xalqlari madaniyatidagi o‘rni., Tamaddun nuri., 2023-yil, 11-son (50) Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma’rifiy, adabiy-badiiy jurnal., 123-125-betlar.



NURULLABOY SAROYI – NOYOB ME’MORIY YODGORLIK

Shahzoda Yaqubova

Namangan davlat universiteti, Tarix yo’nalishi talabasi

Annotatsiya:

XIX asr o’rtalari – XX asr boshlariga kelib qadimiy me’moriy obidalarga boy bo’lgan Ko’hna Xiva shahrida obidalar qurish uchun joy qolmaganligi uchun Xiva xonlari Ichan qal’a tashqarisidan qurdira boshlagan. Ushbu maqolada Xivadagi saroy hovlilardan biri – Nurullaboy majmuasi qurilishi tarixi, uning atrofidagi saroy, hovlilar bog’lar haqida so’z boradi. Shu bilan birga Nurullaboy majmuasining bir qismi hisoblangan xonlikning vaziri bo’lgan Sayid Ibrohim Xo’janing uyi va ushbu majmuaning orqa tomonida o’sha davrdagi xonlikdagi lavozimlardan biri bo’lgan va ular uchun qurilgan Tunqatorlar uyi haqida ham ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so’zlar:

Xiva xonligi, Nurullaboy saroyi, Muhammad Rahimxon II, Islomxo’ja, Asfandiyorxon, Ichan qal’a, “Nurullaboy bog’i”, dolonxona, qorovulxona, otxona, masjid, hujralar, pishiq g’isht, koshin, hovuz, chinni pechkalar, arxitektor A.M.Ropa, qabulxona, karnizlar, 70 ming tillo, sovet tuzumi, mustaqillik.

Xorazm tarixiga nazar soladigan bo’lsak, bu o’lka qadimiy tarixi, tarixiy obidalarining ko’pligi bilan ajralib turadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida xonlik markazi bo’lgan Xiva shahrida ko’plab me’moriy yodgorliklar barpo etilgan va shahar yirik madaniyat markazig aylangan. Bu davrda barpo etilgan me’moriy inshootlarning eng noyobi shak-shubxasiz Nurullaboy majmuasidir.

Majmuadagi saroy, madrasa, arzxonalar o’zining g’aroyibliigi va ham Sharqona ham Yevropa uslubida qurilgani bilan ajralib turadi. Albatta, har bir xon



o'zining saroy xonalari, ajoyib bog'lari bo'lishini hohlagan. Buning uchun ular eng mohir ustalarni me'moriy hunarmandchilik zargarlarini taklif qilib, shunday saroylar qurdirgan. Shunday saroylardan biri bu – Nurullaboy saroyi hisoblanadi. Saroy Xiva tarixidan so'zlaydi, o'zining go'zalligi, jozibasini, ulug'vorligi va hashamati bilan boshqa saroylardan ajralib turadi.

Nurullaboy saroyi 1906 – 1912-yillarda Xiva xoni bo'lgan Muhammad Rahimxon II davrida o'g'li Asfandiyorxon (1918 yil 1-oktabrda aynan shu saroy oldidagi hovuz bo'yida Junaidxon odamlari tomonidan bo'g'izlab o'ldirilgan¹) uchun qurilgan.

Ma'lumki, Ichan qal'ada imoratlar soni ko'payib, yangi bog'lar, saroylar, masjid-madrasalar qurish imkoni kamaygach, Muhammad Rahimxon I o'z o'g'illari Mahmud To'ra² va Muhammad To'ralarga shaharning g'arbiy tomonidan hovli joylar qurib beradi. Sayid Muhammadxon To'ra xon bo'lgach, shunday uylarga yaqin joyda Ko'rinishxona qurilishini vaziri Xasanmurod Qushbegiga topshiradi. Bayoniy va Ogahiyning yozishicha “Nurullaboy” nomi bilan mashhur bog'dagi yangi imoratlar kun chiqar tomonida qurilgan, shulardan biri bo'lgan Ko'rinishxona juda chiroyli bo'lib, unga Ogahiy shunday ta'rif aytgan: “Ko'rinishxona u valo” (Ulug' ko'rinishxona) degan. O'sha davrda ayni yoz fasllarida ko'rinishxonada qabul marosimlari o'tkazilgan.

Sayid Muhammadxondan keyin taxtga kelgan uning o'g'li Muhammad Rahimxon II (1864-1910) shu davrning boylaridan bo'lgan xivalik Nurullaboydan o'z bog'ini sotishini so'ragan. Shunda Nurullaboy xonga avvaldan xalq o'rtasida aytilib kelingan “Nurullaboy bog'i” nomini o'zgartirmasa sotishini aytadi. Xon rozi bo'ladi. Mana hozirgi kungacha ham saroy bilan birgalikda uning atrofidagi bog' shu nomda qolgan. Musiqaga qiziqqan Feruz bog'ni sotib olgandan keyin u

¹ Садуллаев А., Сотликов А., Абдуллаев О. Саййид Исломхўжа. – Т.: “Раззақов ОЖ” ХТ, 2005. – Б. 90.

² То'ра – Xiva xonlarining farzandlariga shunday unvon berilgan.



yerda o'g'li Asfandiyorxon uchun katta bir saroy va haram³ qurdiradi. Saroy Ichan-Qal'aning shimoliy g'arbiy qismida joylashgan. Bu ichki saroyning qurulishi 1896-1904-yillarga to'g'ri keladi.

Saroy maxsus reja asosida barpo etilgan. Birinchi navbatda saroy baland devor bilan o'rab olingan. Ushbu majmua (185.6 x 143.0m) ariq ustiga qurilgan ko'prik orqali darvozadan kirilgan. Saroy to'g'ri to'rtburchak tarxli (87.1 x 65.0m) 4 ta hovlisi bo'lgan va qal'aband devorning balandligi 7.5 m bo'lib, burjlar bilan ishlangan⁴. Saroyda 9 ta katta-kichik honalar va shu bilan birgalikda yana ko'plab honalar, dolonxona, qorovulxona, otxona, mulozimlar turadigan xonalar va haramdan iborat bo'lgan. Saroyga janub tomonidan qurilgan mahsus darvoza orqali kirilgan. Darvozaning ichkarisida esa xon mahkamasi, shaxsiy qo'riqchilar uchun honalar, devonxona ham shu yerda bunyod qilingan.

Saroyning uchunchi hovlisida 2 qavatli, janubiy-g'arbiy hovlida esa 1 qavatli xonalar joylashgan. Arzxona 82.0 x 71.0 metli bo'lib saroyning sharqida joylashgan. Tarxi "G" shakli ko'rinishidabo'lib shimol va g'arbga qaratilgan ayvonlari bor. Madrasaning ham bosh tarsi sharqqa qaratilgan. Janubiy-sharqiy burchagida 4 ustunli 2 qavatli masjid va hujralar joylashgan. Devorlarining atrofi pishiq g'isht va koshin bilan bezatilgan. Bog' saroyga tushgan bo'lib, u ham devor bilan o'ralgan. Bog'ning uch tomonida eshiklar bo'lib, ikkita eshik saroy bilan sharqdagisi arzxona, qabulxona bilan bog'langan. Bog' o'rtasida 8 qirrali hovuz bor⁵.

Saroyning ichini isitish maqsadida, ayniqsa Asfandiyorxon uchun mo'ljallangan honalarga Rossiyadan chinni pechkalar olib keltirilib o'rnatilgan.

³ Haram – xos joy, nomahramlar kiritilmaydigan joy, ichki hovli.

⁴ Маньковская А., Булатова В. Памятники зодчества Хорезма – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1978. – С. 98.

⁵ Маньковская А., Булатова В. Памятники зодчества Хорезма – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1978. – С. 98.



Feruzning vafotidan keyin taxtga kelgan uning o'g'li Asfandiyorxon(1910-1918) o'zi uchun saroyni yangicha uslubda qurishni boshlaydi. U yangi qabulxona qurdiradi, aynan shu qabulxonada chet ellik (rossiyalik) mehmonlarni qabul qilgan. Shu davrda Xiva xonligining bosh vaziri bo'lgan Islomxo'ja Asfandiyorxonning qabulxona qurishiga qarshi chiqqan. Chunki, o'sha paytda kasalxona, pochta-telegraf kechikayotgan va xazinada ham pul kam qolgan edi. Ammo xon o'z fikridan qaytmaydi va shogirdi Rahimbergan mahramni sohibkor (qurilish boshlig'i) qilib tayinlaydi. Ushbu qabulxona 1911-1913-yillarda qurib bitkazilgan. Meditsina fanlari doktori, professor A.A.Abdullayevning "Xorazmda tibbiyot" asarida shunday bir jumla bor: "Islomxo'ja yana Moskvaga borib, shaharning boshlig'i N.I.Puchkov qabulida bo'ladi. Moskva shahrining boshlig'i uni moskvalik arxitektor A.M.Ropa bilan tanishtiradi". A.M.Ropa boshchiligidagi arxitektorlar Xivaga kelib kasalxona, telegraf va aloqa, elchilarni qabul qilish uchun mehmonxona loyihasini maslahatlashib ketishadi. Tez orada loyiha tayyorlanib qurilish ishlari boshlab yuboriladi⁶. Arxitektor A.M.Ropaning loyihasi qabulxona qurilishida muhim ahamiyatiga ega hisoblanadi.

Qabulxona qurilishi uchun alohida pishgan g'ishtlar tayyorlangan. Bu g'ishtlarning loyi shahar yaqinidagi Avaz dunak (hozirda bu qishloq mavjud bo'lib Xiva kolxoz va Kosma yerlari yaqinida joylashgan.) qishlog'idan keltirilib, mahsus ishlangandan keyin 4 ta xumbuzda pishirilgan. G'isht pishirish va terish ishlarida Bobojon xumbuz, Matyoz bola, Xasan pirsiyon, Quryoz Bobojon va boshqa ustalar ishlashgan⁷. Saroyning tomi yupqa temir listlar bilan soyabon (uch burchak) shaklida bostirilgan. Saroyning o'zi yetti honadan iborat bo'lib, eshik, deraza va parket pollarini oq machitlik nemis ustalari tuzatishgan (Oqmachit Xivadan 15 km sharqda joylashgan qishloqning nomi.). Qabulxona xonalarining har birining ichki

⁶ "Nurullaboy" tarixiy majmuasi haqida / <https://nbu.uz/uz/kompleks-nurullaboy/>

⁷ <http://www.khivamuseum.uz/index.php/historical-objects/majmua/38-nurullaboy>



bezaklari bir-biridan farq qiladi. Devor va shiftdagi ganch o'yma ishlarini Ro'zmat arbob Masharipov, Nurmat usta, Xudaybergan Hoji, Quryoz Bobojonov va boshqalar bajarishgan. Va ayniqsa Abdulla Boltayevning⁸ naqsh berish ishlaridagi ahamiyati kattadir. Ganchdan naqsh o'yilgan devorlarga Vaisyozi Matkarimov boshchiligidagi moy bo'yoqlar bilan rang berilgan. Shiftlardagi Yevropa usulida yasalgan gullar va farishtalar rasmini shu davrning rus rassomlari yasashgan.

Mehmonxonaning ikkinchi honasi ziyofat uchun ajratilgan bo'lib, o'lchamlari 8x14m, balandligi 6 m bo'lgan. To'rtinchi xonada xonning qabulxonasi joylashgan bo'lib, bu yerda elchilar qabul qilinib, har xil shartnomalar imzolangan. Sakkiz burchakli yumaloq zal deb yuritilgan bu xona o'lchamlari 10 metr, balandligi 7 metrdir. Asfandiyorxon davrida bu xonaning har burchagida bittadan 1,5 x 3 mertli ko'zgular qo'yilgan. Bu ko'zgular qo'yilishining sababi xona o'ziga uyushtirgan suiqasdlar ko'p bo'lganligi uchun kelgan elchilarni har ko'zgodan ko'rib o'tirgan. Bu honaning shifti yog'ochdan ishlangan bo'lib, nihoyatda ustalik bilan nafis geometrik shakllar yasalgan va oltin suvi yuritilgan. Shiftni bezashda xivalik ustalardan Bobojon Qalandar, Masharip Qalandar, Vaisyozi Matkarimov va boshqalar mahoratlarini ko'rsatishgan. Shiftning pastidan devorlarga o'rnatilgan to'liqsimon karnizlar Rossiyadan mahsus qog'ozlarga o'rab keltirilgan. Oltinchi xona shiftini o'rtasiga ganch o'ymakorligi ustalari tomonidan musulmonlar timsoli bo'lgan yarim oy va yulduzlar naqshi tushirilganligi va rus ustalari bu hona shiftini to'rt tomoniga bittadan farishtalar rasmini moy bo'yoqlar bilan yasalganligi jihatidan ham ajralib turadi. Buning natijasida bir xonaning o'zida ham musulmon ham xristian diniga mansub belgilar paydo bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Mehmonxonaning yettinchi xonasini

⁸ Abdulla Boltayev (1896-1966) – Xivaning mashhur naqqoshi va tarixchisi. Xivadagi o'nlab tarixiy yodgorliklar qurulishida, jumladan Nurullaboy saroyi, Ko'hna Ark, Toshhovli, Islomxo'ja minorasi va madrasasi qurulishida hamda Toshkentda Navoiy nomli opera va balet teatrining Xiva zalini bezashda qatnashgan. 1930-1966-yillarda Xiva tarixi muzeyida katta ilmiy hodim bo'lib ishlab, xonlik tarixiga doir o'nlab qo'lyozma asarlarini yozib qoldirgan. SSSR davlat mukofoti sovrindori va O'zbekiston Xalq rassomi unvoniga ega.



shiftini to'vus patining gullari chiroyli qilib yasalgan va har xil rangdagi qimmatbaho toshlar o'rnatilgan. Devorlardagi ganch o'yama naqshi juda nafis qilib ishlangan va broza rang bilan bo'yalgan. Xonning saroyini qizdirish uchun qish kunlarida rossiyadan yettita chinni pechka keltirilgan. Bu pechkalarni rus ustalarining o'zlari qurib berganlar va ularni saksovul bilan qizdirishgan. Saroyning tashqi tomoni esa koshinlar bilan bezatilgan.

O'sha davr uchun Xiva xonligida yana bir yangilik bu mehmonxona uchun elektr qandillarning keltirilishi bilan katta va og'ir bo'lganligi sababli saroy tomida mahsus yog'och qurilmalar ishlangan. Ana shu piramidasimon qurilmalarga qandillar osib qo'yilgan. Qandillardagi elektr lampochkalarni yoqish uchun Xivaga 40 kilovatlik mahsus elektr stansiyasi ham keltirilgan⁹. Xivada birinchi elektr lampochkasini Volga bo'yidagi Sizan shahridan chaqirilgan Muso Sabanovich Yangio'zarov yoqqan. Qabulxona qurilishi uchun xazinadan 70 ming tillo (126 ming rubl) sarflangan¹⁰.

Nurullaboy majmuasining bir qismi hisoblangan va uning yonida qurilgan inshootlardan biri Sayid Ibrohimxo'janing uyidir. Ushbu bino 1904-yilda qurilgan. Bino o'z davrida turar-joy an'nalari ko'ra, yozgi ayvon, nigirik (karkas) ko'rinishida qad rostlagan. Sho'rolar davrida bino bir necha marta ta'mirlangan, qayta jihozlangan va turli xil maqsadlarda foydalanilgan. Sayid Ibrohimxo'ja biografiyasi bilan tanishadigan bo'lsak, u Sayid Atoiyning Xonqadagi xo'jalaridan biri bo'lmish Muhammad Xo'janing ishonchli vakili Sayidning o'g'li bo'lgan. Sayid Ibrohimxo'ja Sayid Islomxo'janing otasi va Sayid Muhammad Rahimxon II – Feruzning tog'asi bo'lgan. U o'z davrida vazir lavozimida ishlagan va ilg'or qarashlarga ega ma'rifatli inson bo'lgan. Uning ko'rsatmasiga binoan, yo'llar va ko'priklar qurilgan, tamirlangan. Qishloqlarning ijtimoiy infratuzilmasini yaratgan.

⁹Садуллаев А., Сотликов А., Абдуллаев О. Саййид Исломхўжа. – Т.: “Раззақов ОЖ” ХТ, 2005. – Б. 49.

¹⁰ Қўшжонов Отамурод, Полвонов Неъматжон. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми – XX аср биринчи чораги). – Т.: “ABU MATBUOT-KONSALT” МЧЖ, 2007. – Б. 209.



Sayid Ibrohimxo'ja Xivadan Chorjo'yga qadar temir yo'l qurishni rejalashtirgan, bundan maqsad Xiva shahrini taraqqiy topgan dunyo bilan yaqinlashtirish edi. Shaxsiy mablag'i hisobiga paxta tozalash zavodi, kasalxona, dorixona, aniq va gumanitar fanlar o'qitiladigan maktablar qurdirgan.

Nurullaboy saroyini orqa tarafida o'sha davrning mansab unvonlaridan biri hisoblangan Tunqator va ular uchun qurilgan Tunqatorlar uyi barpo etilgan. Ular asli xonni qo'riqlash xizmati ya'ni kechasi bilan xonni qo'riqlab chiqadigan xizmatchilar vazifasida bo'lishgan¹¹. Shuning uchun ham ushbu bino xon saroyini qo'riqlash uchun uning orqa tarafida 1912-yilda qurilgan. Bu obidani ushlab turish uchun 11 ta ustun qo'yilgan va 9 ta deraza, kirish uchun 5 ta eshik qo'yilgan. Hozirda bu inshoot davlat muhofazasiga olingan.

Sovetlar davriga kelganda Nurullaboy majmuasi va boshqa tarixiy inshootlar turli maqsadlarda foydalanishgan. Jumladan Nurullaboy saroyida viloyatning davlat, partiya, komsomol, kasaba ittifoqi kabi tashkilotlar joylashgan edi. 1925-yil mayida Xorazm viloyati inqilobiy komiteti ushbu tarixiy obidani saqlab qolish va uni tozalikda tutish vazifasini komendatura vazifasiga yuklagan¹². Shu davrda o'tkazilgan barcha majlislar Nurullaboy saroyida o'tkazilgan.

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki, Nurullaboy saroyida Xorazm milliy uy-joy qurilishining an'naviy xususiyatlarini o'zida mijassam etganligini ko'rishimiz mumkin. Saroyning bezatilish jarayoni o'z davri uchun yuksak mahoratda ishlangan inshoot hisoblanadi. Ganchkor devorlari oltin va kumush bilan zarhallanganligi, zalning "oltin shifti", murakkab girih naqshlar bezatilganligi va ayvon ustunlaridagi naqshlar Xorazm yog'och o'ymakorligining yuksak namunasini ko'rishimiz mumkin. Vatanimiz mustaqillika erishganidan keyin tarixiy shaharlarimizdagi obidalarni qayta ta'mirlash olib borildi. Xususan, 2017-

¹¹ Eshov B. J., Odilov A. A. O'zbekiston tarixi. II kitob. – T.: "Donishmand ziyosi", 2020. – B. 294.

¹² Дурдиева Г., Заргаров А. Хоразм меъморий ёдгорликлари // Хоразм тарихи янги тадқиқотларда. Маъсул муҳаррир Д.Алимова. – Тошкент-Урганч, 2018. – Б. 142



yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev topshirig'iga binoan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorazm viloyatidagi "Nurullaboy" tarixiy majmuasini rekonstruksiya qilish va restavratsiya qilish to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq ushbu tarixiy majmua, undagi bino va inshootlar ta'mirlandi. Hozirda bu joy Xorazm an'anaviy hunarmandchilik asoriatiqalari saqlanadigan joyga va muzeyga aylantirilgan. Har yili bu tarixiy joyga minglab sayyohlar tashrif buyurmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshov B. J., Odilov A. A. O'zbekiston tarixi. II kitob. – T.: "Donishmand ziyosi", 2020.
2. Қўшжонов Отамурод, Полвонов Неъматжон. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми – XX аср биринчи чораги). – Т.: "ABU MATBUOT-KONSALT" МЧЖ, 2007.
3. Маньковская А., Булатова В. Памятники зодчества Хорезма – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1978.
4. Садуллаев А., Сотликов А., Абдуллаев О. Саййид Исломхўжа. – Т.: "Раззақов ОЖ" ХТ, 2005.
5. "Nurullaboy" tarixiy majmuasi haqida / <https://nbu.uz/uz/kompleks-nurullaboy/>
6. <http://www.khivamuseum.uz/index.php/historical-objects/majmua/38-nurullaboy>



Axborot saqlovchi va tashuvchi vositalar

QARAJANOVA GULNOZA TOLLIYEVNA

SamISI, Investitsiya va innovatsiyalar kafedrasi asistenti

Samarqand Davlat Iqtisodiyot va Servis instituti talabasi

RAHMONOV OYBEK RAHIM O'G'LI

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada ishlab chiqarish soxalarini axborotlashtirish hamda axborot saqlovchi va tashuvchi vositalar haqida yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar: aloqa, axborot, ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Аннотация: В данной научной статье описаны информатизация производственных помещений и средства хранения и транспортировки информации.

Ключевые слова: коммуникация, информация, образование, информационно-коммуникационные технологии.

Abstract: This scientific article describes the informatization of production areas and information storage and transport tools.

Key words: communication, information, education, information and communication technologies.

Mamlakatimiz ishlab chiqarish soxalarini axborotlashtirish jamiyat rivojlanishining obyektiv jarayoni hamda zarur boʻlgan axborotlarni yigʻish, saqlash, uzatish, qayta ishlash va takdim etishning tabiiy davomidir. Iqtisodiyot, ishlab chiqarish, aloqa, ilmiy-tadqiqot, ta'lim, tibbiyot va biznes sohalaridagi mehnatsifati, mehnat unumdorligi va samaradorlik darajasini yuksaltirish ularda tadbiq qilinayotgan eng zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bogʻliq. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari toʻplangan axborot mahsulotlarini kishilarga tezkor surʻatda yetkazib sermehnatlik darajasini



kamaytirgan holda mavjud muammolarni hal etish uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Shuning uchun ham axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarini iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida samarali qo'llash mamlakatni texnologik va iqtisodiy jihatdan rivojlantirishni ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar ko'p jihatdan uzluksiz iqtisodiy ta'lim tizimini shakllantirishni taqozo etadi. Yangicha fikrlaydigan, bozor sharoitlarida muvaffaqiyatli xo'jalik yurita oladigan malakali, chuqur bilimli mutahassislarni, ayniqsa, axborot texnologiyalaridan keng foydalana oladigan kadrlarni tayyorlash davr talabi bo'lib qolmoqda. 2005 yil 2 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorni qabul qilishdan maqsad kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni bajarish, respublikamiz iqtisodiyoti va ijtimoiy sohalari uchun zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali mutahassislarni tayyorlash, shuningdek, zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalari sohasida mutahassislarni, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablari uchun oliy ma'lumotli pedagog kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish va ularning sifatini oshirish hisoblanadi. Ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiyoti samaradorligini o'sishida telekommunikatsiyalar, kompyuter va axborot-texnologiyalarining faol roli oshishini, odamlarning faoliyat va turmushi texnik qurilmalar va xizmatlarning eng zamonaviy turlari bilan jixozlanishini ta'minlash, respublikaning jahon jarayonlariga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi imkonini beradi. Demak, iqtisodiy mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarni davr talabiga javob bera oladigan etuk mutahassis, komil inson bo'lib tarbiyalanishlarida, axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirishda, iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha sohalarida zamonaviy axborot



texnologiyalarini, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalarini ommaviy ravishda joriy etishda hamda ulardan foydalanishda, fuqarolarning axborotga ortib borayotgan talabxhtiyojlarini yanada to'liqroq qondirishda, jahon axborot hamjamiyatiga kirishda hamda jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirishda «Axborot tizimlari» fanini o'qitish katta ahamiyatga egadir.

Axborotlarni saqlovchi va tashuvchi vositalar: fleshka, CD va DVD disklar. Flesh disklar juda katta hajmdagi axborotni o'z ichiga sig'dira oladigan yarim o'tkazgichli elementlardan qurilgan xotira. Flesh xotiralar o'lcham jihatidan juda kichik bo'lib foydalanish uchun juda qulash. Ma'lumot yozish tezligi 6700 kbayt/sek gacha yetadi. Ma'lumot o'qish tezligi yesa 18000 kbayt/sek gacha boradi. Flesh xotiralar hozirgi kunda eng asosiy axborot tashuvchilardan hisoblanadi.

CD disklar – bu kompakt disk so'zlarining bosh harflaridan olingan nomli disklar bo'lib, axborotlarni saqlash uchun optik yuzadan iborat, yumaloq disk ko'rinishidagi axborot tashuvchi hisoblanadi. Kompakt disklar 700 Mbayt hajmga ega bo'lib, unga ma'lumot disk o'quvchi qurilmaning lazer nuri yordamida yoziladi va o'qiladi.

DVD disklar – bu dijital video disk so'zlarining bosh harfidan iborat nomli disklar hisoblanadi. Bu disklar 4.5 Gbayt hajmga ega bo'lib, CD diskarga nisbatan 7 barobar ko'p axborot sig'dirishi mumkin.

Har ikkala turdagi disklar ham optik rejimda ma'lumotlarni yozish, o'qish va saqlash xususiyatiga ega bo'lib, ixtiyoriy turdagi ma'lumotlarni tashish imkoniyatiga ega.

Hozirgi kunda ushbu disklarning yangi avlodlari ishlab chiqarilmoqda, ular CD-RW va DVD-RW ko'rinishida belgilanadi. Bunday turdagi diskarga axborotlarni yozish, o'chirish va qayta yozish mumkin.



Axborotlarni uzoq vaqt saqlovchi vositalar haqida: HDD, CCD, DVD, Cloud. Hozirda barcha ishlar avtomatlashib ketdi, qogʻoz ishlari kamayib, asosan elektron fayllar ommalashdi. Endi bizga qogʻozlarni saqlash uchun katta javon emas, balki, fayllarni saqlash uchun katta hajmdagi qattiq disk, fleshka va optik disklar kerak boʻlib qoldi. Kompyuter bilan bevosita ishlaydiganlar kuniga kamida 10 tadan kam fayl hosil qilishmaydi, bu fayllarning hajmi ham borgan sari ortib bormoqda. Bundan kelib chiqadiki, biz kompyuter fayllarini saqlash boʻyicha muammoga duch kelmoqdamiz va bu muammo borgan sari ommalashib ketdi. Fayl turlari har hil, shunday ekan ularni saqlashdan oldin quyidagi maslahatga amal qilsangiz, foydali boʻladi:

— fayllarni ommabop formatlarda saqlang, chunki keyinchalik ularni ochishga qiynalmaysiz. Agar fayllarni saqlashda nostandart formatni tanlasangiz, keyinchalik bu formatni qaysi dastur orqali ochishni bilmay qolishingiz mumkin.

Ommabop formatlarga:

* matn uchun: doc, txt, docx, rtf;

* rasmlar uchun: png, jpg, jpeg, bmp;

* video fayllar uchun: avi, mkv, mp4.

— fayllarni bir necha nusxalarda va bir necha qattiq disklarda saqlang.

— fayllarni uzoq vaqt saqlash lozim boʻlsa, ularni shifrlamang va parol qoʻymang, agar qattiq diskda joy bermalol boʻlsa, hattoki arxiv ham qilmang.

Keyinchalik bu fayllaringizni hech qanday muammosiz ishlatishingiz mumkin boʻladi.

— maʼlum bir vaqt ichida, uzoq vaqtga saqlab qoʻyilgan fayllaringizni oʻqishga tekshirib turing.

Fayllarni saqlashda quyidagi jihozlardan foydalanish mumkin:



1. Qattiq disk(vinchester, HDD) — har xil turdagi ma'lumotlarni saqlovchi, eng ommabop jihoz. Odatiy ishlash davomiyligi o'rtacha 4-10 yil(ishlatish qoidalariga rioya qilgan holda). Agar bir necha qattiq disklaringiz bo'lsa, bittasiga uzoq saqlash kerak bo'ladigan ma'lumotlarni yozib, uni kompyuterdan uzib bir chetga qo'yib qo'yish yaxshi fikr hisoblanadi. Bu jihozni buzilishiga sabab, magnit maydon va biroz kuchsiz zarb yetarli bo'ladi. Demak, ehtiyotkorlik juda muhim.

2. USB fleshka, SSD — bunday saqlovchi jihozlar mikrosxmelarga asoslangan, odatiy ishlash vaqti taxminan 3-6 yil(agar ishlatish qoidalariga rioya qilinsa). Buzilish ehtimoli juda katta, fleshkaga ma'lumotlaringizni saqlaysiz, 3-4 kundan keyin bu fleshkani qayta kompyuterga ulaysiz, qarabsizki formatlash lozimligini so'raydi. Xullas, fleshka uzoq vaqt saqlash uchun mo'ljallangan jihoz emas. Undan ma'lumotlarni biror joyga ko'chirishda foydalangan qulayroq. SSD disklarga kelsak, ular ham biroz nozik, lekin ularni uzoq vaqt saqlash vositasi sifatida ishlatish mumkin, biror ma'lumotni yozasiz va kompyuterdan uzib, olib qo'yasiz. SSD diskga talab qilgan sharoit qilib berilsa, uzoq vaqt saqlanishi mumkin.

3. CD, DVD, Blu-Ray. Bu disklar optik disklar hisoblanadi. Bularga ma'lumot yozib, 100 yilgacha saqlash mumkin. Bu haqida disk chiqaruvchi firmalar kafolat beradi. Faqat, sharoit qilib berish kerak, ya'ni harorat va shkastlanmaydigan joy. Men o'zim guvoh bo'lganim, 15 yildan beri saqlanib turganini bilaman. Bu disklar oddiy balvanka disklar emas, balki, himoya qoplamasiga ega bo'lgan va ustida 100 yillik kafolat bo'lgan disklardir. Kafolat muddati yozilmagan bo'lishi ham mumkin, lekin plastmassa himoyasi bo'ladi.

4. Cloud texnologiyasi asosida. Bunda internet orqali o'z xizmatlarini taqdim etadigan Google, Yandex, Microsoft kabi mashhur sayt(firma)larni misol qilish mumkin. Katta hajmdagi joy berishadi, lekin ma'lumotlarni uzoq vaqt



saqlashiga kafolat yo‘q. Taxminiy saqlash muddati ham aniq emas, chunki sizning akkauntingiz buzilishi yoki bu firmalar yopilishi mumkin. Bu qachon bo‘lishini hech kim bilmaydi, demak bu mavhum variant. Shunday bo‘lsa ham, bir necha cloud’da saqlash mumkin, lekin uzoq muddatga emas.

Xulosa

Demak, axborot texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy jahon darajasi shundayki, respublikada jahon axborot makonining infratuzilmalari va milliy axborot-hisoblash tarmog‘i integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimini yaratish iqtisodiyot, boshqarish, fan va ta’lim samaradorligining muhim omili bo‘lmoqda. Bu muammolar ancha murakkab va ayti paytda respublikamiz uchun dolzarbdir. Hozirda olib borilayotgan iqtisodiy, tuzilmaviy va boshqa o‘zgarishlarni amalga oshirish natijalari respublikada axborotlashtirish bilan bog‘liq muammolarning qanday va qaysi muddatlarda hal etishga ham bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ходиев Б.Ю. ва бошқалар. “Информатика” Олий ўқув юртлари учун дарслик -Т.: ТДИУ. 2007й.
2. Алимов Р.Х., Юлчиева Г.Т., ва бошқалар “Ахборот технологиялари ва тизимлари” дарслик-Т.: ТДИУ, 2010й.
3. Балдин К. В., Информационные системы в экономике: Учебник. – 3-е изд. – М.: Издательство – торговая корпорация «Дашков и К°» 2006 – 395 с.
4. Гаврилов М.В. Информатика информационные технологии: Учебник для студентов вузов. - М.: Гардарики, 2006. - 655 с.
5. Фуломов С.С, Алимов Р.Х, ва бошқалар. “Ахборот тизимлари ва технологиялари” “Шарқ”, Т-2000 й.
6. Алимов Р.Х, Юлчиева Г.Т., Алишов Ш.А. “Ахборот технологияси ва тизимлари”. Маъруза матнлари. Т: - ТДИУ, 2005 й.



7. Alimov R.X, Begalov B.A., Yulchieva G.T., Alishov Sh.A. “Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari”. O`quv q`llanma. T.: - O`YUAJN, 2005 y.
8. Бегалов Б.А. Ахборот-коммуникациялар бозори: шаклланиш, тенденциялар, эконометрик моделлаштириш ва ривожланиш. Монография. – Тошкент: Фан, 2001.
9. Майоров С.И. Информационный бизнес: коммерческое распространение и маркетинг. М.: Финансы и статистика. 1994 г.
10. Вержбицкий В.В., Колесникова И.В. Проблемы разработки АОС экспертного типа по общественным наукам. - М.: НИИ ВШ, 1990. Вып.1. - 48 с.



Erkin Vohidov she'rlarida ifodalangan undalmalar tahlili

Toshkent gumanitar fanlar universiteti "Amaliy va gumanitar fanlar" kafedrası assistent o'qituvchisi Mo'minova Yulduz Aminboyevna.

Toshkent gumanitar fanlar universiteti 2- kurs boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi Mamatsapoyeva Sevinch Mahmud qizi

Annotatsiya: Erkin Vohidov she'riyati deganda hech kimnikiga o'xshamas, xalqimizning ma'naviy xazinasidan joy olgan takrorlanmas durdonalardir. Shir she'riyatida undalmalarning qo'llanishi she'rga o'zgacha zavq va ta'sirchanlik bag'ishlagan. Har bir ifodalangan undalmalarda olam – olam ma'no mujassamdir. Undalmalar so'zlovchining tinglovchiga munosabatini ifodalab baho xarakteristikasi (ijobiy, salbiy, neytral, ko'tarinkilik, tantana kabilar)ga ega bo'ladi. Erkin Vohidov she'rlarida undalmalar qahramon ichki dunyosini ochib berishda, she'rning ta'sirchanlikini ta'minlash uchun ham qo'llanilgan.

Kalit so'zi: Vatan, she'r, undalma, sabo, muloqat, obrazlilik, ijobiy va salbiy ma'no.

Erkin Vohidovning betakror ijodi XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. O'zbek adabiyoti va madaniyati shoir nomi bilan chambarchas bog'landi. Shoir serjilo ijodi bilan xalqimiz qalbiga kirib bordi. Erkin Vohidovning har bir she'rida yangicha dunyoni kashf etish mumkin. Chunki she'rlarini o'qisak, o'ziga xoslik, ya'ni biri ikkinchisini takrorlamaydigan davrning yorqin manzarasi, xalqning o'lmas madaniyatini, millatning go'zal qiyofasi to'la aks etadi. Shoir she'rlarida juda murakkab so'zlardan foydalanmagan, balki o'quvchiga juda oson tushunarli bo'lgan oddiy so'zlardan foydalangan. Hayotdagi oddiy holatdan chiroyli obrazlilik va badiiylik yaratib she'rlar yaratgan. Mazkur maqolada shoirning she'rlarida ifodalangan undalmalarning tahlili haqida gap boradi. Shoir she'rlarida vatanparvarlik, Vatanga, uning cheksiz kengliklariga muhabbat, ona yurtning yorug' kelajagiga ishonch mavzusi eng muhim mavzu bo'lgan va shunday bo'lib qoladi.

Undalma so'zlovchi nutqi qaratilgan shaxs, jonli va jonsiz predmetni ifodalashiga ko'ra kuchli stilistik vosita sanaladi. Undalmalar so'zlovchining tinglovchiga munosabatini ifodalab baho xarakteristikasi ottenkasi (ijobiy, salbiy, neytral, ko'tarinkilik, tantana kabilar)ga ega bo'ladi.

Undalmalar nutqiy muloqot jarayonida, badiiy matnlarda keng ishlatilib salbiy yoki ijobiy baho munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Undalmaning baho



ifodalash, his-tuyg'ular bayon eta olish ko'lamining kengligi yozuvchilarga badiiy asarlarida ulardan samarali foydalanish imkonini beradi. Nutqiy muloqot jarayonini badiiy matnlarda undalmalarning ishlatilishi bu esa fikrning asosli ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Undalma nutqning turli ko'rinishlari, murojjaat, buyruq-chaqiriq, e'lonlarda ishlatiladi. Undalma gapning ayrim bo'laklari yoki butun gap mazmuniga aloqador bo'lib, gapning zarur qismlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham u ayrim gap bo'laklari va gapning umumiy mazmuni bilan o'ziga xos grammatik aloqaga kirishadi. Ma'lum bir gapdan undalmaning chiqarilishi yoki hatto o'rnining o'zgartirilishi gapning umumiy mazmuniga ta'sir etadi, muallif aytmoqchi bo'lgan fikr anglashilmay qoladi. Undalmaning ajratilgan aniqlovchiga yaqin bo'lgan turida grammatik aloqaga kirishish xususiyati aniq ko'rinadi, chunki undalma ma'lum bir bo'lakning ma'nosini izohlaydi.

Undalmalar tuzilishiga ko'ra uch xil bo'ladi:

1. Yig'iq undalmalar. Yig'iq undalmalar yolg'iz bir so'zdangina tarkib topadi.

2. Yoyiq undalmalar. Yoyiq undalma o'ziga oid so'zlar bilan kengayib keladi. Undalmaga oid so'zlar aniqlovchilar yoki izohlovchilar sifat, sifatdosh, ot, olmosh so'z turkumlari orqali ifodalanadi.

3. Murakkab undalmalar quyidagicha shaklda bo'ladi: a) yolg'iz undov so'z bilan yoki undov so'z bilan barobar aniqlovchilar, izohlovchilar bilan birga kelishi mumkin. Bu holda kuchli hayajon ma'nosi ifodalanadi. Bu kabi turlarini deyarli shoir ijodida uchratishimiz mumkin.

Erkin Vohidov she'rlarida undalmalar qahramon ichki dunyosini ochib berishda, she'rning ta'sirchanlikini ta'minlash uchun ham qo'llanilgan.

Vatan, to tanda jonim bor,

Seningdirman, seningdirman,

Tanim xok o'lsa ham sen yor,

Seningdirman, seningdirman.

Bu misralardan shuni anglashimiz mumkinki, ya'ni insonning tug'ilib o'sgan joyi, har bir inson uchun qadrlil va muqaddas hisoblangan Vatanga murojjaat qilingan. Bunda so'zlovchining nutqi vatanga qaratilgan bo'lib, vatanning naqadar ulug' ekanligini, hatto tanamizda jonimiz bor ekan vatan deya yonib yashashimiz haqida so'z ketgan. Bu she'rda undalmaning yig'iq undalma turidan



foydalangan. Erkin Vohidov she'rlarida ko'proq "vatan" so'zi undalma vazifasini bajarib kelgan. Bu ham shoir she'riyatining o'ziga xos qirrasini desak bo'ladi.

Tong nurisan, Vatan, qalbim osmonida,

Erking azal ajdodlarning armonida

Gap orasida yoki oxirida kelgan undalma gap bo'laklari intonatsiyasidan kam farqlanuvchi intonatsiya bilan aytiladi. Gap boshida kelgan undalmalar bilan alohida ton bilan, cho'zibroq talaffuz etiladi. Ayrim holarda undalma kuchli his - hayajonni ifodalab, ko'tarilgan intonatsiya bilan aytiladi va shunga ko'ra, undalmalardan so'ng undov belgisi qo'yiladi.

Ayrim hollarda undalmalar, ayniqsa she'riy asarlarda turli narsalar, ya'ni hayvonlar, qushlar va jonsiz narsalarning nomini bildirib kelgan so'zlar ham bo'lib keladi. Ayniqsa, Erkin Vohidov she'rlarida "Vatan" so'zi juda ko'p undalma bo'lib kelgan holatlarni ko'p uchratamiz. Bundan shuni ko'rishimiz mumkinki, vatan tushunchasi har shoirning bosh mavzusi bo'lishi tabiiy holdir. Lekin har bir yurak uni o'ziga xos kuyga solib kuylaydi. Erkin Vohidov ham "vatan" so'zini undalma qilib kelganda uni hech narsa bilan ta'riflash mumkin emasligini, hech bir o'xshashi yo'qligini, uni o'rnini hech narsa bosa olmasligini tarannum qilgan.

Yurtim, olis yo'lga chiqqan karvoning bor,

Karvoningga pospon- uyg'oq sarboning bor.

El dardida halovatsiz o'g'loning bor,

Shu insonga otilgan o'q menga tegsin.

Bu o'rinda shoirning yurtim deya yurtga qaratilgan undalmasida kuchli his - hayajon bilan aytilgan. Kishining diqqatini tortishi va beixtiyor o'yg'a tolshga chorlaydigan undalmadir. Bu yurtning har doim bizga tayanch bo'ladigan sarboni borligini tarannum qilgan.

Shoirning yana bir she'rida vatan mavzusidan chekinib, turli xil narsalarni undalma sifatida foydalangan va bu narsa she'rning qiymatini ham oshirgan.

Tushda ko'rdim dilbarimni,

Ey sabo, uyg'otmagil,

Olma bir dam vasl shavqin,

Qo'y, meni qo'zg'atmagil.

Shoir bu yerda odamdan boshqa maxluqot vakillarigan qaratilgan undalmalardan foydalangan. Bularga tulpor, ot, it, kapalak, oy, quyosh, yulduz,



samo, qush, yomg'ir, shamol va boshqalar kiradi. Bu she'rda shoir "sabo" ga murojaat qilgan. She'rning yanada emotsional-ekspressivlikni oshirish uchun ey undov so'zidan ham foydalangan. Undalmalar undov so'zlar bilan ifodalansa, undov so'zdan keyin hech qanday tinish belgisi ishlatilmaydi, balki undalmadan keyin qo'yiladi. "Ey" undov so'zi kishilarning diqqatini tortish uchun ishlatiladi. She'rda she'rning ta'sir kuchini oshirgan yana bir unsur bu sinonimlar (ma'nodosh) so'zlardir. Shoir she'rda shamol deb oddiygina qilib qo'ymasdan uning ma'nodoshini qo'llashni maqul ko'rdi. Bu ham shoir mahorati va she'rning imkoniyat darajasini oshirishga katta yordam beradi. Sinonimlar har bir so'zning eng go'zal ma'no jilolarini ochib berishga yordam beradigan vositadir. Shu bilan birga shamol so'zining sinonimlari yel, bod, janub, sabo, dovul, shurta, esin, nasim, shabboda, sarsar, izg'irin, tayfun, quyun, to'fon va bo'ron kabilar.

Shamol so'zining o'zi, aslida, shimoldan esgan yelni bildiradi. Lekin hozirgi o'zbek tilida bu so'z keng ma'noda ishlatilib kelmoqda.

Sabo so'zi she'riyatda ko'p ishlatiladi. Shu sababdan o'z shakl va ma'nosini o'zgartirmagan. Sharqdan esadigan yel sabo deb ataladi. Sabo – tong yeli degan fikr ham bor. Bu fikrning paydo bo'lishiga sabab tongda Sharqdan yel esib turgan.

Bitta shu undalma orqali juda ko'p ma'nolarni chiqarib keltirish mumkin. Ya'ni "sabo" so'zi orqali ko'chim hosil bo'lgan. Insonga xos xususiyatlarni narsalarga ko'chirish, ya'ni sabo so'zi orqali metaforik ko'chimni hosil qilgan. Bu bilan shoir ijodini ko'p qirrali desak bo'ladi. Chunki bir narsani ifodalash orqali turli ma'no nozikliklarini ham ifodalangan o'rinlarni uchratamiz.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati.- T., 2007.
2. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. -T.,1983.
3. Abdullaev A. O'zbek tilida ekspressivlikni ifodalash. Tosh., 1983.
4. Abdurahmanov G, SHOabdurahmonov SH, Xojiev A. O'zbek tili grammatikasi, "Fan", nashriyoti, Toshkent, 1996.
5. Mamajonov A., Mahmudov U. Uslubiy vositalar. – Farg'ona, 1996.
6. Ahmedova N. O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi: Filol.fan.nom.diss...avtoref. -T.,2008.
7. Alibek Rustamov "So'z xususida so'z" asari 2-noyabr 2020-yil



**Хотин-қизлар фаолининг иш самарадорлигини ошириш,
маҳаллалардаги ажрим ёқасидаги оилаларни олдини олиш**

Андижон вилояти Хўжаобод туман

Бешкарам МФЙ Хотин-қизлар фаоли

Ғофурова Муҳайё Абитджановна

Тел рақам: +998-90-571-12-66

Электрон почта: muhajegofurova75@gmail.com

Аннотация

Ушбу мақолада Хотин-қизлар фаолининг иш самарадорлигини ошириш, фаолиятини намунали ташкил этиш орқали хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, ижтимоий-ҳуқуқий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш, маънавиятини юксалтириш, маҳаллалардаги ажрим ёқасидаги оилаларни олдини олиш мақсадида «Аёл қалбига йўл» гуруҳини ташкил қилиш ва хотин-қизлар билан яқиндан танишиб, уларнинг муаммоларини ечиш.

Калит сўзлар: репродуктив, 300 сонли қарор, терси, чўпоннинг устунлиги, Гендер тенглик, мативатция, мативатцион цитаталар, психологик тренинглар.

Республикамизда оила ва хотин-қизларга оид давлат сиёсатини янги босқичга олиб чиқиш, уларнинг муаммоларига тизимли ечим топиш, ваколатли органлар фаолиятини самарали ташкил этиш ҳамда мувофиқлаштириш мақсадида Оила ва хотин-қизлар давлат қўмитаси ташкил этилди ва албатта, Республика, шаҳар, вилоят ва туманларда хотин-қизлар фаоллари ўз фаолиятини бошладилар.



Энди хар бир маҳаллада хотин-қизларнинг дарди билан яшайдиган тизим, яъни хотин-қизларни оила, маҳалла ва меҳнат жамоаларида ижтимоий-ҳуқуқий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш, ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, маънавиятини юксалтириш, ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш, замонавий намунали оилани шакллантириш, унинг маънавий-ахлоқий муҳитини ва анъанавий оилавий қадриятларни мустаҳкамлаш, оилаларнинг репродуктив саломатлигини яхшилаш ва тиббий маданиятини ошириш бўйича мақсадли чора-тадбирларни амалга ошириш, хотин-қизларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, оила ва хотин-қизларга ижтимоий-ҳуқуқий, психологик ёрдам кўрсатиш, касб-хунарга, тадбиркорликка кенг жалб этиш, оилаларда маънавий-ахлоқий қадриятларни мустаҳкамлаш, оилавий ажримлар ва хотин-қизлар ўртасидаги жиноят ва ҳуқуқбузарликларга бутунлай барҳам бериш, эрта туғруқнинг олдини олиш масалалари самарали йўлга қўйилди. Гендер тенгликни таъминлаш сиёсатини давом эттириш, хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, уларни қўллаб-қувватлашга доир ислохатлар амалга оширилди.

Хотин-қизлар ўртасида тадбиркорлик ғояларини амалга оширган тадбиркор аёлларимиз сони янада кўпайди ва аҳоли бандлигини таъминлаш, камбағалликни қичқартириш масалалари амалга оширилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Маҳаллаларда ижтимоий хизматларни кўрсатиш ва ижтимоий ҳимояга муҳтож оилаларга ёрдам бериш тизимини янги босқичга кўтариш ҳамда хотин-қизларни касбга ўргатиш ишларини янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 300 сонли қарори ва унинг мазмун-моҳиятига алоҳида эътибор қаратилди. Хотин-қизларнинг таълим ва касбий кўникмалар олишлари, муносиб иш топишларига кўмаклашиш, тадбиркорлигини қўллаб-қувватлаш, истеъдодли,



иқтидорли хотин-қизларни аниқлаб, уларни қобилиятларини тўғри йўналтириш вазифалари амалга оширилди. Касб-хунарга ўқитилган хотин-қизларимиз иш билан таъминландилар.

Худудларда, айниқса, қишлоқларимизда хотин-қизлар учун кўрсатиладиган тиббий-ижтимоий хизматлар йўлга қўйилди, шаҳар марказидан узоқ бўлган маҳаллаларга тиббий масканлар қурилди ва аҳолини соғлом турмуш тарзини таъминлаш ишлари ўз натижаларини кўрсатди.

Оғир ижтимоий аҳволга тушиб қолган хотин-қизларимизга ижтимоий-ҳуқуқий, психологик ёрдам кўрсатиш, уларни манзилли қўллаб-қувватлаш мақсадида «Аёллар дафтари» билан манзилли ишлар олиб борилди, маҳаллалардаги боқувчисини йўқотган эҳтиёжманд хотин-қизлар, 1-2 гуруҳ ногиронлари, қарамоғида ногирон фарзандлари бор хотин-қизларимизга ўз вақтида бир марталик ёрдам пуллари берилди.

Жамиятимизда хотин-қизларимизга тазйиқ ва зўравонликка нисбатан мурасасизлик муҳитини яратиш, хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини таъминлаш мақсадида ажрим ёқасидаги оилаларимизни ўрганиб, уларга психологик, ҳуқуқий ёрдамлар кўрсатилмоқда, лекин айрим оилалар оила муқаддас эканлигини тушуниб етмаяптилар. Абдулла Авлоний таъкидлаганидек, «Ахлоқ-эзгуликнинг муайян бир инсонда намоён бўлиш шакли, бинобарин, ҳар бир хулқ эзгулик ва олийжанобликнинг тимсоли, ҳамма нарса тарбияга боғлиқ», «Бадан тарбиясининг фикр тарбиясига ҳам ёрдами бордир. Жисм ила рух иккиси бир чўпоннинг ўнг ила терси кабидир. Агар жисм тозалик ила зийнатланмаса, ёмон хулқлардан сақланмаса, чўпоннинг устунни қўйиб, астарини ювиб, овора бўлмоқ кабидирки, ҳар вақт устидаги кири урадур». Бу фикрларда одоб ҳар бир шахсни ижтимоий сифатларини ривожлантиришнинг асоси ҳисобланади. Зеро, тарбия кўрган,



оила бебаҳо, муқаддас эканлигини тушуниб етган шахс ўз оиласини кадрлайди, авайлайди.

«Одамзодга никоҳ ва имондан бошқа ҳатто жаннатда ҳам давом этадиган ибодат йўқ. Оила шундай саодатбахш бир боғки, у ҳатто жаннатда ҳам давом этади. Ҳар қандай шартнома маълум муддатдан сўнг кучини йўқотади, аммо бир-бирларидан рози бўлган умр йўлдошларнинг биргаликдаги ҳаёти ўлим билан ҳам тугамайди». («Дуррул мухтор» китобидан) Шундай экан мамлакатимизда оила давлат ва жамият ҳимоясида. Бинобарин, уни мустаҳкамлаш ҳар бир фуқаро, айниқса, биз хотин-қизлар фаоллари зиммасидаги энг муҳим вазифадир.

Оилаларни тарбиявий-таълим салоҳиятини мустаҳкамлаш, жамиятда оилавий қадриятларни сақлаш, оилаларда маънавий муҳитни яхшилаш ва уларнинг фаровонлик даражасини ошириш мақсадида «Аёл қалбига йўл» номли хотин-қизларимиз учун гуруҳ ташкил қилдим, ҳар бир оиланинг адолат устуни –эркак ҳисобланади, аёл эса меҳр тимсоли, шундай экан кўпроқ аҳамиятимизни меҳрга қаратамиз, зеро меҳр адолатни унинг атрофидаги улар яратган боғларни ўз саховати билан эзгуликка, олийжанобликка, садоқатга, андишаликка, муҳаббат, вафо, ҳалоллик, одамийлик, тўғрисиўзлик, иззат-ҳурмат ва самимийликни мужассам этиш учун аёлларнинг қалбига йўл топиб, улар билан яқиндан танишиб, соғлом турмуш тарзини кўтаринки руҳдаги мативацион цитаталар, психологик тренинглар, одоб-ахлоқ тўғрисидаг ҳаётий ҳикоялар, асарлар ваҳоланки уларни қизиқтирган саволларга ижобий жавоблар билан аёллар қалбига йўл топдим, бу орқали эрта никоҳ ва ажрашишларнинг олдини олиш, оилавий ҳаёт масъулияти, оилалардаги носоғлом муносабатларни эр-хотин, қайнона-келин ўртасидаги жанжалларга барҳам бериш, яхшилаш, ўз жонига қасд



ISIRC
INTERNATIONAL SCIENTIFIC INNOVATION RESEARCH CONFERENCE FRA

INTERNATIONAL SCIENTIFIC INNOVATION RESEARCH CONFERENCE

Volume 01, Issue 01, 2024

қилиш ҳолатларини олдини олиш, ўзини ёлғизликка мавҳум этган аёлларимизга ҳаёт аёл билан гўзал эканлигини тушунтириш орқали ҳаётга қайтариш, барча гуруҳимизга жамлаган аёлларимизга мативатция бериб, ўз мақсадимга эришдим. Зеро, хотин-қизларимизга гўзаллик, вафо, ибо-ҳаё, оила бахти ҳамроҳ бўлсин.



TA'LIM-TARBIYADA MAKTAB BILAN OTA-ONA HAMKORLIGI

Urganch davlat universiteti

Pedagogika fakulteti talabalari

Erkinboyeva Munira

Erkinboyeva Munisa

Annotatsiya: O'qituvchilar va ota-onalar, umuman olganda, uy va maktab, ota-ona va o'qituvchi o'rtasida ijobiy, qo'llab-quvvatlovchi va ochiq munosabatlar zarur. Bundan tashqari, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ota-onalar ishtiroki va ota-onalar va o'qituvchilarning muvaffaqiyatli hamkorligi o'quvchilar uchun ta'lim natijalarini yaxshilaydi. Maqolada ham talim-tarbiya jarayonida maktab bilan ota-ona hamkorligidagi faoliyat va uning natijalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: maktab, Mahalla, ota-ona, talim-tarbiya.

Ota-onalar ta'limning muhim sheriklaridir. Ular farzandlarining ta'limga bo'lgan munosabatiga ta'sir qiladi va uyda o'rganishni qo'llab-quvvatlaydi. Ular uy va maktab o'rtasidagi hayotiy aloqadir. Ular maktab hayotiga aralashganlarida, ular bizning maktablarimizni o'rganish, o'sish va rivojlanish uchun yaxshi joylarga aylantiradi. Ota-onalarni jalb qilish siyosati ota-onalarni sherik sifatida kutib olishganda va ularni hurmat qilishda va ular uyda va maktabda o'zlarining hissalarini qo'shishlari uchun zarur bo'lgan yordamni hisobga olgan holda o'quvchilarning yutuqlari va muvaffaqiyatlarining oshishini tan olishadi. Maktabdagi ijobiy iqlimni targ'ib qilish uchun quyidagi qadamlarni belgilab beradi:

- > O'qituvchilar maktab va oilalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni rag'batlantiradi va qo'llab-quvvatlaydi.
- > Barchaga hurmat bilan qarashadi.
- > maktab madaniyati jamoatchilik va g'amxo'r munosabatlar hissini rivojlantiradi.
- > Ota-onalar maktab faoliyatiga jalb qilingan.



> Har kim o‘zini xavfsiz va xavfsiz his qiladi.

Ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi munosabatlarga nisbatan ota-onalar va o‘qituvchilar jamoasining quyidagi xususiyatlarini aniqlaydi:

> Bir-biringiz bilan uchrashishga va diqqat bilan tinglashga vaqt ajrating.

> Rejalashtirish va qaror qabul qilish guruhining ajralmas qismlari sifatida bir-biringizga munosabatda bo‘ling.

> Har bir insonga o‘z fikrlarini bildirishga va takliflar berishga ijozat bering.

> Muammolarni o‘zaro hal qilishni rag‘batlantiradigan tarzda kelishmovchiliklarga yondoshing.

> Qarama-qarshiliklar mavjud bo‘lganda yoki qiyin vaziyatga javob topilmaganda, ikkinchi fikrni rag‘batlantiring.

Ota-onalar haqida gap ketganda, umumiy muammolar orasida quyidagilar mavjud:

> Farzandining noto‘g‘ri xatti-harakatlariga toqat qiladigan ota-onalar (ayniqsa o‘qituvchi oldida)

> maktab faoliyati va targ‘ibotlari bilan hamkorlik qilmaydigan ota-onalar

Ko‘pgina hollarda, ota-onalar farzandiga yomonroq baho qo‘ygan o‘qituvchiga o‘z farzandini ko‘proq narsaga loyiq deb da'vo qilish uchun tez-tez taTim maskaniga kelishadi. Eng yomoni, ota-onalar farzandlarining noto‘g‘ri xatti-harakatlari tufayli chaqirilganda ota-ona o‘zini maqtaydi. Farzandining noto‘g‘ri xatti-harakatlarini to‘g‘irlash uchun o‘qituvchi bilan hamkorlik qilish o‘rniga, ular hatto farzandining qilmishining to‘g‘ri ekanligini va bu haqda tashvishlanadigan hech narsa yo‘qligini tasdiqlaydilar. Ushbu holatlar hozirgi kunda tendentsiya bo‘lib tuyuldi va bu o‘qituvchilarni tanlagan sohalarida ishtiyoqlarini yo‘qotishiga olib keladigan stressga olib keladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalar uchun vaqti-vaqti bilan trening, munozara, test, so‘rovnomalar o‘tkazib turilsa, ayniqsa maktab yoshdagi 6-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorgarligini aniqlashda ota-onalar ishtirokida olib



boriladigan har bir mashg'ulot farzandining nimaga qodir ekanini anglashiga yaqindan yordam beradi va bolalarni maktabga tayyorlashda oila a'zolarining mas'uliyati oshadi. Ta'lim muassasalarida ota-onalar va tarbiyachilar bilan o'tkaziladigan har bir munozara bolalarni maktabning ilk bosqichiga yengil qadam qo'yishida hamda sog'lom bola va sog'lom muhit sharoitini mustahkam yaratishga imkon beradi. Treninglar maktabgacha ta'lim muassasa uslubchisi, maktabgacha tayyorlov guruhi tarbiyachisi va tarbiyalanuvchilari hamda ularning ota-onalari, boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishtirokida o'tkazilishi bola rivojlanishida to'g'ri tashxis qo'yishga yordam beradi.

Oilada uyushtiriladigan suhbatlarning alohida ahamiyati bor. Odob-axloq mavzusidagi bunday muloqotlar farzandlarning til vositalarini mustaqil tarzda qo'llashiga erishish zarurligini ko'rsatadi. Bunday oilaviy suhbatlar bolaning kundalik faoliyat hamda sayr-u sayohatlarida samarali natija berishi, shubhasiz. Hozirgi zamon talablariga muvofiq oilada bolalar ona tilini, adabiy talaffuz me'yorlariga binoan barcha tovush va so'zlarni aniq va tiniq talaffuz etib, so'z boyligini rivojlantirmog'i lozim. Bola shaxsini shakllantirish, nutqini rivojlantirish borasida yo'l qo'yiladigan kamchiliklar ko'p uchrab turadi. Ota-onalarning bolalarga beparvoligi, so'zlashganda nutq madaniyatiga ahamiyat bermasligi bola nutqining buzilishiga olib kelmoqda.

Oilada bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi birgalikda uyushtiriladigan o'yin, sayrlarda yuqori darajada shakllanadi. Bolalar nutq madaniyatini shakllantirishda oila a'zolari va tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatlar muhim rol o'ynaydi.

Tarbiya qanchalik erta boshlansa, hosili ham shuncha barvaqt ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ota-onalar va ta'lim muassasalari tarbiyachilari hamda pedagoglarning vazifasi yosh avlodni aqlan yetuk, jismonan sog'lom, axloqan pok, barkamol inson qilib tarbiyalashdan iboratdir.



Shuni ta'kidlash joizki, bola tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullangan otalarning farzandlari ta'lim muassasasida o'z imkoniyatlarini mashg'ulot jarayonida qiynalmasdan ko'rsata oladi. Oila va ta'lim muassasalarining uzluksizligi bolani nafaqat jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantiradi, balki uning ma'naviy shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Po'latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta'limning rivojlanish bosqichlari. 2020 21-27 P.
2. Saidov S.A., Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san'atiga qo'shgan hissasi. 2021. 332-336 P.
3. www.google.com internet sayti



History and development of English children's literature

Urgench State University

Tursunboyeva Sevinchoy

Faculty of foreign philology, Philology and language teaching:

English 2202 "A" group

The future of any nation and country depends on its young successors and, of course, how developed their thinking is. Literature, which is the main tool that teaches people to think and think, has not lost its place even in the 21st century, which is considered the age of fast information and high technologies.

Literature can be divided into two - adult and children's literature, depending on the age group of readers. As a separate part of general literature, children's literature is also an art of words.

Children's literature is a set of artistic, scientific, scientific-popular and journalistic works created for children and teenagers. The main part of these are artistic works. The fiction literature of the peoples of the world begins with examples of oral creativity, most of which are intended for children, such as quick sayings, riddles, game songs, narratives, legends, fairy tales, proverbs, parables, and epics. Examples of children's and youth literature can be divided into the following groups:

- 1) samples of children's folk art;
- 2) works created directly for children;
- 3) works that were not originally intended for children, but later became children's literature.

The unique feature of children's literature is a changing phenomenon, which is directly related to the reader's age, historical period and social environment. Considering the age of the reader is one of the main features of children's literature. For example, in children of preschool age, this exhibitionism is based on



the seemingly simple conflicts of the forces of goodness and evil, while the psyche of complex people in complex life begins to open up in the literature created for teenagers.

Another feature of children's literature is its richness of action. From this comes the demand for the plot in children's literature. It requires quick, interesting, imaginative, humorous resolution of events. Children prefer short and fast-paced stories to long images and explanations. "What will happen now?" This question is one of the most interesting questions for any reading child.

For a work created for children, writers choose a topic based on the children's point of view and their psychology. Also, the language of the work is grammatically simple and understandable, based on children's daily speech. If the speech of adults is used in the work, it will tire the children, and despite the interesting plot, the children will get bored quickly.

Another feature of children's literature is the age of the characters. Children who read books are more interested in the adventures of their peers than the adult hero and his instructions.

In children's literature, along with art, enlightenment also takes a leading place. Because examples of children's literature also serve to educate young people in the spirit of human qualities. The development principles of children's literature of all periods are reflected, first of all, in enlightenment and education. The formation of children's literature in almost all nations is closely related to the Enlightenment and reforms of the school-education system. Its main goal is to educate children, to develop their aesthetic consciousness and to form their worldview.

The concept of children's literature is a phenomenon that arose in the recent past, and its history and development is related to the concept of childhood and the place of children in society. The attitude of adults to children has always



influenced children's literature. If we look at children's literature as a literature that "means not the subject or the author, but the audience of readers", then it is no exaggeration to say that children's literature was created in the 18th century.

Although works for children were not written until the 18th century, folktales, songs, poems and short sayings created in folklore were intended for the children's audience. The French historian Philippe Ares writes in his work "Centuries of childhood" published in 1962 that a new interpretation of the concept of "childhood" has emerged in these days, and until the recent past, the treatment of children was almost no different from that of adults. As a proof of his opinion, he shows that until the 18th century, almost no work was written for children except for the educational writings of priests such as Venerable Bede and Elfric Eynsham. However, it is worth mentioning that other works devoted to religious education and etiquette were widespread among the children of rich families in the Middle Ages.

Harvey Darton, a scientist who has done a lot of outstanding work in the field of children's literature and history, says about the history of English children's literature: the number of such books was limited in the 17th century itself. Although there are many textbooks, as well as books of advice on the rules of behavior, none of them make children feel the pleasure of reading, on the contrary, they only feel the task ahead of them and the fear of making mistakes caused. Only in the middle of the 18th century, children's books separated from the invisible layer of English literature as a separate, independent literature".

A few centuries before the publication of children's books appeared in Britain, illustrated pamphlets depicting fairy tales and legends were considered children's favorite books. Illustrated brochures were the most bought and read books by children until the 18th century.

LIST OF USED LITERATURE



1. The Republic of Uzbekistan "National Program of Personnel Training"// A perfect generation—the foundation of Uzbekistan's development. — T.: Sharq, 1997.
2. The Law of the Republic of Uzbekistan "On Education".// Perfect generation is the foundation of Uzbekistan's development. - T.: Sharq, 1997.
3. Resolution No. 334 of the Cabinet of Ministers under the President of the Republic of Uzbekistan of July 20, 1992 "On sending the youth of Uzbekistan to study abroad".
4. Decision PQ-1875 of the President of the Republic of Uzbekistan dated December 10, 2012 "On measures to further improve the system of learning foreign languages".
5. A Companion to the Victorian novel //ed. Brantlinger, Patrick and Thesing, William B. UK, Blackwell Publishing Ltd., 2002. –513 p.
6. Agarwal, N., Agarwal, Ch. Friends and Foes of Harry Potter: Names Decoded. Texas World Publishing, 2005. –160 p.



ТЕКУЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ В СВЯЗИ С COVID-19 ВРЕМЯ ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЕ БЕЗОПАСНОЙ ПОМОЩИ В СТОМАТОЛОГИИ

Нумонова Дилноза Улугбек кизи

Студентка стоматологического факультета Самаркандского Государственного Медицинского Университета, г. Самарканд, Узбекистан

Хасанов Мухаммадкодир Камолиддин угли

Студент стоматологического факультета Самаркандского Государственного Медицинского Университета, г. Самарканд, Узбекистан

Ахмедов Алишер Астанович

К.м.н., декан стоматологического факультета Самаркандского Государственного Медицинского Университета, г. Самарканд, Узбекистан

Аннотация:

Вскоре после появления этой пандемии весь мир пострадал от этого заболевания, и особенно стоматологи пострадали как академически, так и клинически, поскольку клинические процедуры в стоматологии генерируют аэрозоли, которые могут вызвать инфекцию в стоматологической среде, а также у стоматологов. Было соблюдено множество протоколов, которые помогли снизить распространение этого заразного вируса. На всех уровнях проводилась профилактика Covid-19, и на этапе изоляции стоматологи лечили только экстренные случаи, что увеличивало спрос на стоматологические услуги и поскольку стоматологи подвергались более высокому риску заражения, поэтому появилось множество новых стратегий сортировки и практики теле-стоматологии. появился на свет. Хотя в настоящее время ковид не так уж распространен, необходимо соблюдать все протоколы безопасной стоматологической практики, поскольку это предотвратит распространение ковида даже в минимальном количестве. Стоматология всегда была полезна большому количеству населения, поэтому для стоматологов очень важно безопасно заниматься стоматологической деятельностью как во время вспышки заболевания, так и в обычное время.

Ключевые слова: Covid-19, стоматология, стоматологическая практика, дезинфекция.

I. ВВЕДЕНИЕ



С появлением этого быстро распространяющегося вируса, который начался, когда его случай впервые был зарегистрирован в Китае, а оттуда он быстро распространился на другие страны мира. Основной средой распространения в стоматологии, по-видимому, была заразная слюна. Коронавирусы — это вирусы, которые имеют оболочку, а их геном содержит одноцепочечную РНК. Размер капсида его ядер составляет более 25 КБ, поэтому он имеет самый большой геном по сравнению с другими РНК-вирусами. Гораздо раньше считалось, что эти вирусы поражают только животных, но недавние исследования показывают, что они поражают и людей. Они приводят к инфекциям верхних дыхательных путей и, в дальнейшем, к простуде.

Некоторые штаммы, например SARS-COV, MERS-CoV и 2019-nCov, имеют зоонозное происхождение. Воздействие на дыхательные пути больше, чем на другие пути. Инфекция Covid может привести ко многим проявлениям: от легких, включая простуду, до самых тяжелых, включая бронхит и пневмонию. Еще в январе этот возбудитель коронавируса был правильно объявлен этиологическим фактором этой вирусной инфекции. Оно началось в Китае в декабре 2020 года и стало очень проблемной проблемой во всем мире. В январе ВОЗ признала это вопросом, вызывающим обеспокоенность на международном уровне. Ранее он был известен как 2019-nCoV, а затем стал известен как SARS CoV-2.2. Как мы видим, эта пандемия привела к разрушению всего мира во всем мире, что привело к большому количеству случаев как смертности, так и заболеваемости. Распространение или интенсивность передачи этого вируса очень быстрые, и он очень быстро распространяется в окружающей среде и другому человеку при простых действиях, таких как кашель или чихание, или даже при прикосновении к объектам, зараженным вирусом, и в результате этого взаимодействия этот вирус далее переходит в носовой проход. Клинически у людей, заразившихся этой инфекцией, могут наблюдаться как легкие, так и тяжелые проявления. Чтобы побить непрерывный рекорд распространения заразной инфекции, тестировщикам рекомендуется применять более совершенные методы работы в отрасли. Это предотвратит распространение инфекции от них к родственникам и другим людям, связанным с ними. Все процедуры, включая экстренную помощь, должны выполняться безопасным образом с применением множества строгих мер. С появлением этих новых обстоятельств для стоматологов стало важно принять различные другие меры для своей безопасности.



II. СПОСОБЫ ПЕРЕДАЧИ

Этот тип передачи представляет собой тот тип передачи, при котором распространение конкретного инфекционного агента происходит, когда передающие капли остаются в воздухе и остаются в течение более длительного времени и на большие расстояния, может ли произойти передача инфекций Covid воздушно-капельным путем. в местах с закрытыми помещениями, а также в местах с плохой вентиляцией лица, заразившиеся инфекцией, и речь этих лиц, при которой они выделяют аэрозоли, что также, по-видимому, играет важную роль в передаче аэрозоля капли, вызывающие инфекцию. При распространении этого вируса возможна также передача через fomites. Этот вид инфекции может распространяться при заражении в виде выделений через дыхательные пути или в виде капель, выделяющихся через инфицированных больных. Если провести анализ RT-PCR тех зараженных частиц, которые присутствовали на поверхностях, то мы можем сказать, что эти зараженные частицы могут оставаться дольше в этой среде, и это зависит от температуры этой среды и количества влажности, которая присутствует в этой среде и типе задействованной поверхности.

Инфекция этого типа также может развиваться, когда вы прикасаетесь к зараженной частице или любому зараженному предмету, а затем прикасаетесь к носу и глазам, и это приведет к распространению инфекции от этого живого объекта к вашему телу, и вы заразитесь. инфекционное заболевание. Этот вирус также был обнаружен во многих других образцах, которые являются биологическими примерами в моче или на лицах пациентов, однако до сих пор не было опубликовано никаких сообщений по этому вопросу.

III. СТОМАТОЛОГИЯ, ОСОБЕННО ВО ВРЕМЯ COVID-19

Мы все уже знаем, что большинство процедур, проводимых в стоматологии, считаются плановыми, поскольку они планируются стоматологом заранее. Чтобы избежать обстоятельств, при которых эта инфекция может распространиться в большом количестве, ее следует отложить везде, где в это время распространена эта эпидемия. Но есть некоторые специфические состояния, при которых лечение требуется срочно, даже если произошла вспышка какого-либо эпидемического заболевания. Нам важно четко определить, что необходимо, а что можно отложить.



Мы специально взяли отчет ADA, в котором говорилось о неотложных методах лечения, которые можно проводить ежедневно даже во время эпидемии. Их можно разделить на следующие категории:

К первой категории относятся те методы лечения, которые назначаются, когда заболевание угрожает жизни или когда лечение необходимо в течение часа.

К ним относятся случаи, при которых кровотечение является неконтролируемым.

Любой вид отека, из-за которого пациент не может дышать.

Вторая категория относится к тем стоматологическим процедурам, которые требуют облегчения боли пациента для уменьшения чрезвычайных ситуаций в отделении или больнице.

Например, тот, при котором возникает боль в зубе из-за воспаления пульпы, боли в перикорните, абсцесса, перелома зуба, травмы зуба или биопсии.

К третьей категории относятся те пациенты, лечение которых можно проводить через 24 часа.

Например, реставрации, которые вызывают боль, или кариес, вызывающий боль, или снятие швов, или коррекция зубного протеза, или постоянная реставрация или регулировка дуг в ортодонтии.

К четвертой категории у нас относятся пациенты, которые приходят на регулярные осмотры, или на плановую чистку, или на ортодонтическое лечение, или на удаление зубов, которые необходимо удалить.

В случаях, которые можно отложить, пациенту следует дать советы и попросить его заняться самопомощью.

Одновременно следует проводить лечение только одному пациенту. Зону ожидания следует использовать наряду с применением мер социального дистанцирования. Следует считать, что каждая зона клиники подвергается риску, поскольку инфекция может присутствовать на любой поверхности, и она может стать заметной и вызвать дальнейшее заражение. Каждая конкретная область ручки операторской секции должна быть продезинфицирована. После прихода и ухода каждого пациента туалеты необходимо дезинфицировать. Процедуры дезинфекции следует проводить до и после обработки. Дезинфицирующее средство, которое следует использовать, должно иметь широкую область спектра. Чаще всего



используется 70% этиловый спирт. Наиболее распространенный способ применения этих дезинфицирующих средств — через одноразовые салфетки.

IV. ОБЩИЕ ЭМОЦИИ, ЧУВСТВУЮЩИЕ СТОМАТОЛОГИ ПО ВСЕМ МИРУ

Во время этой пандемии наиболее распространенными эмоциями, с которыми стоматологи сталкивались во всем мире, были страх и тревога, и во время лечения или во время стоматологической практики этот страх или тревога могут привести стоматолога к панике, которая может привести к совершению любых ошибок при лечении пациентов или замешательству. при принятии решения. По сравнению с предыдущей стоматологией, которую практиковали различные стоматологи, было добавлено много новых мер предосторожности в соответствии с протоколами лечения пациентов, такими как сбор анамнеза пациентов, а также выявление признаков и симптомов инфекций дыхательных путей, а также температуры пациента перед любым лечением. перекись водорода в концентрации одного процента использовалась для промывания рта с последующим наложением коффердама и надлежащей дезинфекцией всей стоматологической клиники.

V. ОРАЛЬНЫЕ ПРОЯВЛЕНИЯ

Оральные проявления этой пандемии также наблюдаются наряду с другими проявлениями, связанными с дыхательными путями. У пациентов с Covid наблюдались признаки сухости и некоторые везикуло-буллезные поражения, а также афтозные поражения. Некоторые люди также сообщали об ощущении жжения и некоторой депапилляции, которую они наблюдали в полости рта, особенно на языке. Помимо этих проявлений, у некоторых людей также наблюдались односторонние комиссуральные трещины. Также были отмечены признаки комиссурального хелита. У некоторых пациентов с ослабленным иммунитетом также наблюдался псевдомембранный кандидоз.

VI. МНЕНИЕ АКАДЕМИЧЕСКИХ ПРОФЕССИОНАЛОВ

Многие стоматологические школы и колледжи по всему миру столкнулись со многими трудностями во время этой пандемии как в академическом, так и в клиническом плане. Поскольку стоматология — это в основном полученные клинические знания, которых не хватало во время карантина. Все сотрудники и студенты думали, что они могли бы подвергнуться большому риску, если бы продолжали выполнять свои



